

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Filologiya fakulteti

dekani _____ dots. I.Xudoynazarov

“ _____ ” _____ 2014- yil

5220100-Filologiya (O'zbek filologiyasi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

IV kurs 42-guruh talabasi

ESHBOBOYEVA ZARINANING

LIRIK DOSTON XUSUSIYATI VA BOSH OBRAZ MASALASI

(I.Otamurod va U.Azim dostonlari misolida)

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Talaba _____ Eshboboyeva Zarina

Ilmiy rahbar _____ f.f.n Karomova SH

“ _____ ” _____ 2014- yil

“Himoyaga tavsiya etildi”

O'zbek adabiyoti kafedrası

mudiri _____ dots. G. Imomova

“ _____ ” _____ 2014- yil

Qarshi – 2014 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-7
--------------------	------------

ASOSIY QISM:

I. BOB. LIRIK DOSTONNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI

1.1.LIRIK KECHINMA TASVIRI.....	8-17
---------------------------------	------

1.2.LIRIK DOSTON VA SHOIR OBRAZI (IKROM OTAMUROD

DOSTONLARI MISOLIDA.....	18-39
--------------------------	-------

II. BOB. TARIXIY VOQELIK VA SHOIR SHAXSI.....40

2.1.USMON AZIM DOSTONLARIDA LIRIK QAHRAMON

TABIATI.....	40-47
--------------	-------

2.2.SO‘NGGI YILLAR DOSTONCHILIGIDAGI TASVIR XILMA

XILLIGI	48-64
---------------	-------

XULOSA.....	65-66
--------------------	--------------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	67-69
--	--------------

Tushuntirish qismi

Kirish Sharq adabiyoti an'analari ta'sirida rivojlanib kelgan o'zbek adabiyoti XX asrda mazmunan va shaklan boyib, qator jarayonlarni boshdan kechirdi. Bu davr o'zbek ijodkorlari mumtoz adabiyot an'alarini davom ettirish bilan birga jahon adabiyotining hayotbaxsh tajribalarini ham o'z namunalariga singdira boshladilar. XX asr davr o'zbek adabiyotida bu xususiyat yanada kuchayganligini poema janri misolida ham ko'rish mumkin. Dastavval shuni ta'kidlash joizki, XX asr o'zbek adabiyotshunosligida "doston" va "poema" atamaları aralash holda ishlatilishi oddiy urfga aylandi. Aslini olganda, bu unchalik ham to'g'ri emas. Doston deyilganda, eng avvalo bizning ko'z o'ngimizda "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" singari xalqimizning betakror san'at durdonalari gavdalanadi. Biroq bugungi doston va poema deb atalayotgan asarlarga o'ziga xos xususiyatlari bilan xalq eposlari sanalgan "Alpomish", "Go'ro'g'lilar" dan farqlanganidek, o'zining yaqin o'tmishi – XX asrning birinchi yarmidagi namunalaridan ham ajralib turadi. Har bir tarixiy davr muayyan ijtimoiy voqelik doston tabiatida o'z izini qoldirib kelmoqda.

"Doston" so'zi asli forscha bo'lib makr, firib, hiyla, navo, maqom, afsona, doston ma'nolarini bildiradi. Adabiyotshunos D. Quronovning hozirda ommaviylik kasb etgan "Adabiyotshunoslik lug'ati" (T., 2010) kitobida u "turkiy xalqlar og'zaki ijodidagi epik janr. Xalq og'zaki ijodidagi dostonlar voqeaband sujet asosiga qurilgan yirik hajmli asarlar bo'lib, ular baxshi jurligida ijro qilingan, og'izdan-og'izga o'tib bizgacha yetib kelgan. Mumtoz adabiyotimizdagi dostonlarning aksariyati yaxlit voqea asosidagi sujetga qurilgan (mas. "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun") epik asarlar tashkil qiladi" (94-bet) deyiladi.

Biroq, poema atamasining izohini ham doston atamasi izohiga havola etadi. Lekin hozirgi adabiy jarayondagi bu asarlarni bir xil ma'noda ishlatish o'zini oqlamaydi. Shuning uchun ham XX asrning ikkinchi yarmida yozma adabiyotimizda yaratilgan, bu xildagi asarlarga doston atamasi bilan birga poema atamasini ham ishlatila boshladi. Xususan, N.Hotamov va B.Sarimsoqovlarning

“Adabiyotshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” (T., 1983) da “Poema-she’riy shakldagi katta hajmli lirik epik janr, she’riy rivoyaviy asar” (256-bet) deb ta’rif beriladi. Ba’zilar, xususan Samarqandlik adabiyotshunoslar N.Shukurov va Sh.Xolmatovlar esa “Poemada voqealar ramkasi dostonga nisbatan tor bo’ladi” (“Adabiyotshunoslikka kirish” Samarqand, 1974, 162-bet) degan fikrni olg‘a suradi.

Xullas, janrning atamasi va uning taraqqiyot xususiyati haqida fikrlar har xil. Aslini olganda ham xalq og‘zaki ijodidagi dostonlar va yozma adabiyotning jahon namunalari hisoblangan Dantening “Ilohiy komediya” si, J. Bayronning “Donjuan”, N. Hikmatning “Insoniyat manzaralari”, Nekrasovning “Russiyada kim yaxshi yashaydi”, A. Tvardovskiyning “Vasiliy Terkin” poemalari bugungi poemalardan mazmun va hajmi jihatidan ancha zalvorlidir.

Taniqli adabiyotshunos, ustoz I. Sulton “Poema aslida epik asardir, ammo she’riy shaklda yozilishi uni ayni mahalda lirikaga mansub etadi” deb ta’riflaganda ming bora haqdir.

Boshqa xalqlar adabiyotida bo’lgani singari o‘zbek poemachiligi ham janr taraqqiyoti xususiyatiga ko‘ra shakl va mazmun jihatidan doim o‘lish o‘zgarishda. Eng muhimi bu asarlarda inson va uning muammolari talqini yetakchilik qilib kelmoqda. Muhtaram Prezidentimiz I. A. Karimov ta’kidlaganlaridek “Chinakam ijod va iste’dod mahsuli bo’lgan asarlarni, yozuvchining yuragidan, qalbidan chiqqan haqqoniy va ta’sirchan fikrlarni keng ommaga yetkazish uchun barcha mavjud vositalardan unumli foydalanish kerak”.¹ Mana qariyb bir asrdiki chinakam iste’dod egalari sanalmishi shoirlarimiz jamiyat, va inson ma’naviy dunyosini aks ettirishda badiiy vosita sifatida poema janridan foydalanib kelishmoqda. XX asrning 30-50 yillaridagi doston (poema) namunalari markazida muayyan qahramon hayotining xarakterli bir davri turardi (G‘. G‘ulomning Ko‘kan”, H. Olimjonning “Zaynab va Omon”, Uyg‘unning “Jontemir”, A.

¹ Каримов.И.А. Истиқлол ва маънавият.-Тошкент:, “Ўзбекистон нашриёти”, 1994, 10--бет

Muxtorning “Po‘lat quyuvchi” asarlari kabi), 60-70 yillarga kelib esa poemalarga bir konkret voqea hodisadan mutaassirlanishi natijasida ko‘nglida tug‘ilgan ehtirosli, his hayajonlari, xitoblari bilan poema (doston) syujetini harakatga keltiradigan bo‘ldi. (Mirtemirning “Surat”, S. Zunnunovanning “Ruh bilan suhbat”, E. Vohidovning “Nido” va boshqa dostonlar). O‘tgan asrning 80 ayniqsa, 90 yillarida yaratilgan poema (doston) larda esa muayyan bir qahramonning hayot tarixi yoki muayyan bir voqea-hodisani asos qilib olish unchalik ham muhim bo‘lmay qoldi (Zulfiyaning “Hotiram siniqlari”, A. Mahkamning “Ishq”, “Tavajjuh”, I. Otamurodning “Istariim”, “Sen”, “Ichkari va tashqari”, “Sopol siniqlari”, Faxriyorning “Ayolg‘u”, “Muchal yoshi”, S. Ashurning “Tunchiroq” singari dostonlari). Asar markazida muayyan voqealar tizimi yoki ma’lum bir voqelik turmaganligi bois bugungi poemalar lirikaga yanada yaqinlashdi, o‘zining epik ko‘lamdorligini saqlash ehtiyoji esa mushohadakorlikning tasavvufiy – falsafiy, modernistik ohanglarni talab eta boshladi, hatto, xalq, Vatan kabi epik muhtashamlilikni taqozo etadigan yirik mavzular talqini ham subektiv tarzda hal etiladigan bo‘ldi. Tafakkur va ong osti qatlamlarga chuqurroq kirish natijasida poema qahramoni o‘zlikni taftish qilishga kirishdi, o‘zlikni barkamol etish tadorigini ko‘ra boshladi. Zamonaviy shakl mumtoz mohiyatini shu tariqa davom etira boshladi.

Mavzuning dolzarbligi: Doston janrdagi muhim yangilanishlar, o‘zgarishlar undagi tasvir turlarining rang-baranglashuvda ko‘zga tashlanamoqda. Yuqorida eslatganimizdek mazkur bitiruv malakaviy ishda poema janrida kechayotgan tasvir xillarini, lirik dostonga xos xususiyatlarni tahlil etishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi Biz o‘zimizning mazkur bitiruv malakaviy ishimizda hozirgi o‘zbek dostonlarining tasvir turlari, lirik dostonlarning o‘ziga xos xususiyati, lirik dostonlarda bosh obraz va shoir shaxsiyati, lirik qahramon tabiati va so‘nggi yillar dostonchiligi taraqqiyotidagi ana shu xususiyatni o‘rganishni maqsad etdik.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari: Yuqorida bayon qilingan asosiy maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

– XX asr oxirida yaratilgan o‘zbek poemasidagi lirik kechinma tasvir hollarini o‘rganish;

– Hozirgi o‘zbek poemalaridagi liro-epik tasvirning o‘ziga xosligini tahlil etish;

– Poemalardagi liro-dramatik tasvirga xos-xususiyatlarni ko‘zdan kechirish;

– Lirik doston xususiyati va bosh obraz masalasi Ikrom Otamurod dostonlari misolida tahlil etish;

– Usmon Azim dostonlari misolida lirik qahramon tabiati va ijodkor shaxsi masalalarini kuzatish:

So‘nggi yillar o‘zbek dostonchiligining o‘ziga xos xususiyatlari haqida to‘xtalish.

Bitiruv malakaviy ishning yangiligi: Dostonlarda lirik kechinma tasviri va bosh obraz, lirik qahramon tabiati va shoir shaxsiyati masalalarini I.Otamurod va U.Azim dostonlari misolida o‘rganish, so‘nggi yillar dostonchiligida ushbu ijodkorlarning o‘rniga baho berish va bugungi dostonchilikda yaratiladigan o‘ziga xosliklarni tahlil etishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi va tahlil usuli: Ishning metodologik asosini belgilashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch”, “Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor” asarlaridagi nazariy fikr va g‘oyalarga suyanilgan holda tadqiqotning nazariy yo‘nalishlari va tahlil usullari belgilandi. Shuningdek, o‘zbek tanqidchi va adabiyotshunoslarimiz U.Normatov, B. Sarimsoqov, D.Qo‘ronov, Sh. Hasanovlarning qarashlariga suyardik va tahlilda qiyosiy usulni tanladik.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: – obekti: Ushbu ishimizning mavzu-muammosini o‘rganish uchun XX asrning so‘nggi yillarida va XXI asrning boshlarida yaratilgan dostonlarga va shu bilan bir qatorda I.Otamurod va U.Azim dostonlari alohida tahlilga tortildi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati: Ushbu bitiruv malakaviy ishda zamonaviy o‘zbek dostonchiligining o‘ziga xosligi, dostonlarning tasvir turlari, lirik kechinma tasviri, lirik doston xususiyatlari ilmiy tadqiqi asosida hozirgi adabiy jarayonda faol ishtirok etib, o‘ziga xos uslubda ijod qilayotgan I.Otamurod va U.Azimning dostonchilikdagi ijodining o‘rni, uning qahramon yaratishdagi mahoratini o‘ziga xos jihatlarini yoritishi bilan ahamiyatlidir.

Bitiruv malakaviy ishdan oliy o‘quv yurti talabalari “Hozirgi adabiy jarayon”, “O‘zbek nasr poetikasi”, “Yangi davr o‘zbek adabiyot” fanidan amaliy mashg‘ulotlarda, seminarlarda foydalanish mumkin. Ayni paytda, magistrant talabalarga muayyan adabiy – nazariy muammo bo‘yicha maxsus kurslari olib borishda yordam beradi.

Malakaviy ishning tuzilishi va hajmi: Ushbu bitiruv malakaviy ishi har ikki fasldan iborat bo‘lgan asosiy qismdagi ikki bobdan va xulosa, 39 nomdagi foydalanilgan adabiyotlar tashkil etadi. Ish 69 sahifada o‘z aksini topgan.

I. BOB. LIRIK DOSTON VA UNING O‘ZIGA XOSLIGI

1.1. Lirik kechinma tasviri

“Doston” atamasi qissa, hikoyat, sarguzasht, afsona, masal, majoz, firib, Rustamning otasi Zolning laqabi, mashhurlik ma’nolarini anglatadi. Adabiyotshunosligimizda “doston” va “poema” atamalari xususida yagona to’xtamga kelinmagan. Realistik ruhdagi asarlarini “poema” romantik ruhdagi asarlarni “doston” atash unchalik to’g’ri emas. Vaholanki, biror bir janr undagi realistik yoki romantik tafakkur tipiga qarab belgilanmaydi. “Poema” atamasi doston atamasining g’arbona ekvivalenti. Zamonaviy doston mumtoz dostonning sifat va mumtoz o’zgarishlariga uchragan yangi modeli.

Adabiyotshunosligimizda ishlatilib kelinayotgan “reportaj doston”, “qasida doston”, ocherk doston”, “sonet doston” kabi atamalari dostonlarni tasnif va tahlil qilishda chalkashlik keltirib chiqaradigan nisbiy tushunchalar. Zotan ertak yo ocherk dostoniga qo’shilar ekan, o’zining ertaklik, ocherklik xususiyatlarini batomom yo’qotadi, doston strukturasiga singib ketadi. Qolaversa, mazkur atamalar ostida taqdim etilayotgan asarlar lirik, liro epik yo dramatik dostonlardir. **Bu lirik qahramonning monologi lirik dostonni, monolog hikoyasi liro epik dostonni, diologi (o’zi va o’zgalar bilan) dramatik dostonni yuzaga keltiradi.** O’zbek adabiyoti ming yillar davomida Sharq xalqlari adabiyoti an’analari doirasida, arab, fors, hind adabiyotlari bilan hamkorlikda, islom dini falsafasi, tasavvuf ta’limoti ta’sirida rivojlandi. O’zaro bog’liqlik adabiyotimizda mukammal asarlarni paydo bo’lishida imkon yaratdi. Qolaversa, urug’, elat, qabila kabilarning necha ming yillarki o’ziga saqlab, qahramonlik eposiga aylangan o’zbeklarning “Alpomish”, “Guro’g’li” dostonlari, qirg’izlarning “Manas”i, armanlarning “Sosunli Dovud”i, hindlarning “Ramayana”, “Mahobharota”si dostonlarning yirik namunasidir. A.Navoiyning 5 dostonidan iborat “Xamsa”si ham betakror san’at durdonasi hisoblanadi. Har bir tarixiy davr muayyan ijtimoiy voqelik doston tabiatida o’z izini qoldirib kelmoqda. Muallif shaxsiyatining poema markazida mustahkam o’rnashishi

janrning barcha tizimlarini, jumladan, uning qurilish xarakterini ham belgilaydi. Muallif shaxsiyatning asar markazini tashkil etishi esa lirikaning asosiy belgisi ekanligi ko'plab tadqiqotlarda isbotlangan. Lirika unsurlari, epik parchalar va dialog ko'rinishidagi dramatik manzaralar bilan yaxlit bir butunlikda zamonaviy dostonlarning murakkab gavdalantirmoqda. Obektiv olamni tasvirlashda lirikaning imkoniyatlari katta . **Muallif o'ylari, xayollari xarakterlarni shakllantirib, sujetni harakatga keltiruvchi kuch bo'lib maydonga chiqar ekan, bu uning qurilishini anglatadi: muallif o'ylarining assotsiativ bog'lanishi lirik qurilish demakdir.**

XX asrning 20-50 yillariidagi doston namunalari markazida muayyan qahramon hayotining xarakterli bir davri turardi. Oybekning "Dilbar davr qizi" "O'ch", "Temirchi Jo'ra", "Navoiy", "Xamza", "Qizlar", H.Olimjonning "Zaynab va Omon" poemalari, O'yg'unning "Jontemir", U.Nosirning "Norbo'ta", "Naxshon".

60-70 yillarga kelib esa dostonlarga bir konkret voqea, real bir hayotiy hodisa asos qilib olinadigan bo'ldi va lirik qahramon o'sha voqea-hodisadan ko'nglida tug'ilgan ehtirolari, his-hayajonlari, xitoblari bilan doston syujetini harakatga keltiradigan bo'ldi. Mirtemirning "Surat", S.Zunnunovanning "Ruh bilan suhbat", E.Vohidovning "Nido", J.Jabborovning "Gulshan", "Ona Yer qushig'i" dostonlari. O'tgan asrning 80-yillar va 90-yillarga qadar A.Oripovning "Jannatga yul", E.Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostonlari.

90-yillarda yaratilgan dostonlarda esa muayyan bir qahramonning hayot tarixi yoki muayyan bir voqea hodisani asos qilib olish unchalik ham muhim bo'lmay qoldi. Zulfiyaning "Xotiram siniqlari", A.Mahkamning "Ishq", "Tavajjuh", I.Otamurodning "Istarim", "Sen", Faxriyorning "Ayolg'u", "Muchal yoshi" S.Ashurning "Tunchiroq" singari dostonlari. Asar markazida muayyan voqealar tizimi yoki ma'lum bir voqealar turmaganligi bois bugungi dostonlar lirikaga yanada yaqinlashdi. Tafakkur va ong osti qatlamlariga chuqurroq kirish natijasida doston qahramoni o'zlikni taftish qilishga qaytdi.

LIRIK KECHINMA TASVIRI Muallif shaxsiyatining asar markazini tashkil etishi esa lirikaning asosiy belgisi ekanligi bizga ma'lum. **Jamiyat va shaxs dunyosidagi ziddiyatlar, manzaralar, davrning eng muhim masalalari individual dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs nuqtai nazaridan yoritiladi. Hamda bu xususiyat zamonaviy dostonlarda lirik tur belgilarining ustivor o'ringa ko'tarilganligini ko'rsatib turibdi.**

Misol uchun Mirtemirning "Surat", M.Shayxzodaning "Toshkentnoma", S.Zununnovanning "Ruh bilan suhbat" E.Vohidovning "Nido" kabi dostonlari ham bunga misol bo'la oladi.

Ijodi istiqlool arafasida shakllanib, kamolga yetgan ijodkorlar dostonlarida ham lirika qurilishiga xos belgilarning ustivorligini aniq ko'rishimiz mumkin. I.Otamurod "Yovondagi yolg'iz daraxt", Faxriyorning "Ayolg'u", K.Baxriyevning "Tilovat", S.Ashur "Tun chiroq", A Muxtor "Dol qoya" kabilar.

Dostonning turli lirik janrlar (g'azal, muxammas, masnaviy, ruboiy, tuyuq, fard, qasida va h.kz) bilan ziynatlash, bir mavzu doirasidan har xil lirik lavhalar yaratish an'alarining ko'chayib borayotganligi zamonaviy dostonlarda lirik qurilishining mavqeini oshirmoqda.

LIRO-EPIK TASVIR Ma'lumki, lirik shaxsning kechinmalari, munojoti, murojaati, e'tirofi, qalb manzaralari tasviri lirik she'rning o'zagini tashkil etadi. "Xush lirikaning epiklashuvi deganda nimalarni tushunish mumkin?. Bu xususiyat faqat o'zbek lirikasining so'nggi yillar taraqqiyoti uchungiina xosmi? Shunday bo'lsa, uning ushbu davr uchun xarakterli bo'lgan belgilari nimalarda ko'rinadi? Mumtoz dostonlar bag'ridagi rivoyat, hikoyatlarni she'riy yo'l bilan yozilganidan qat'iy nazar epik hikoyalar, deb hisoblash mumkin. A.Muxtor XX asr o'zbek adabiyotida o'ziga xos iz qoldirgan yetuk so'z san'atkorliridan biri. Uning ijodida dostonlar alohida o'rin egallaydi. A.Muxtor dostonlaridagi liro-epik tasvirga moyillik uning ham yozuvchi, ham shoir sifatida iqtidoridan tug'ilgan tabiiy hodisa. Bu ajoyib hodisa uning 1990 yil chop etilgan "Dol qoya"

dostoni uchun ham xos. “Dol qoya” dostonida qadim Sharq afsonalaridan biri hikoya qilanadi. Afsonada hikoya qilinishicha, chagʻal urugʻidan keksarib qolgan ota-bobolarni dol qoyaga qoldirib kelish odati boʻlgan. Shoir bu afsonani bekorga eslamaydi. Sobiq tuzumning soʻnggi yillarda oshirilgan “oshkoralik” jarayoni natijasida “oq” “qora” bilan “ijobiy” “salbiy” bilan oʻrin almashadi. Bu jarayon aslida davlatchilikni saqlab qolishga qaratilgan tadbir edi. “Oshkoralik” avlodlararo uzviylikka ham rahna sola boshladi, jamiyatning umumiy kayfiyatiga ham salbiy taʼsir oʻtkaza boshladi. A.Muxtor ana shu voqelik taʼsirida afsonaga murojaat qiladi. Shoirning lirik kechinmalari afsona joʻrligida zamondoshlari psixologiyasini ochishga qaratiladi. Hujjat epiklikni kuchaytirish vositasi hisoblanadi. Bugungi dostonlarda lirizm ustunligi yaqqol sezilsada, lekin bu lirizm epiklikka tuyingan, epizm bilan omuxtalashgan lirizmdir. Shu maʼnoda dostonlarda hujjatlilik ham muhim rol oʻynaydi. Gazeta xabarlari, kitoblardan koʻchirma keltirish, tarixiy faktlar, xat, kundalikdvagi qaydlar, statistik maʼlumotlar dostonlar qurilishiga singib borayotgan ana shunday hujjatlilikni tashkil etadi. O.Matjon “Ming bir yogʻdu” dostonida Navoiy asarlaridan, “Choʻldagilar” asarida ensiklopedik maʼlumotlar va gazeta xabarlaridan, T.Ahmad “Moziy sabogʻi” asarida arxiv maʼlumotlaridan, I.Otamurod “Sen” asarida xat janridan, Faxriyor “Ayolgʻu” dostonida tarixiy faktlardan, T.Nizom “Girya” dostonida mumtoz shoirlar gʻazallaridan samarali foydalanayotgan hujjatlilikni bugungi dostondagi oʻrmini koʻrsatib turibdi. Dostonlarimizda hujjatlilikni qaror topib borayotganligini ikki omil bilan izohlash joiz. Dostonnavislarimiz, birinchidan, zamonaviy proza yutuqlaridan foydalanayotgan boʻlsalar, ikkinchidan A.Voznesenskiy, YE.Yevtushenko, R.Hamzatov kabi isteʼdod egalarining tajribalaridan bahramand boʻlmoqdalar.

Zamonaviy oʻzbek dostonchiligining qator namunalarida, jumladan, E.Shukurning “Ibtido xatosi”, I.Otamurodning “Sen”, A.Mahkamning “Toʻrt darvish”, “Fotiha” asarlarida xalq dostonlari uslubini eslatuvchi nasriy parchalar ifoda tarzi bilan nasrdagi boʻlaklar nazmga yoʻgʻrilgan. Bu asarlardagi nasriy parchalar ifoda tarzi bilan nasrdagi nazmlarni yodga soladi.

LIRO-DRAMATIK TASVIR: Lirizm va dramatism

mutanosibligi zamonaviy dostonlar tabiatida chuqur ildiz otib borayotgan tasvir usullaridan biridir. Dostonlarning barcha ko`rinishlarida bu usuldan mahorat bilan foydalanilayotganligini guvohi bo`lish mumkin. Albatta, bugungi doston ichki ko`rinishlarining asosiy sifat va fazilatlari mumtoz dostonlar bag`rida mavjud edi. Lirizm va dramatism yaxlitligiga misol tariqasida “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod bilan Xisrav dialogini eslab o`tish kifoya.

Dedi: qaydinsen, ey majnuni gumrah?

Dedi: majnun vatandin qayda ogoh.

Dedi: nedur senga olamda pesha?

Dedi: ishq ichra majnunliq hamisha.

Farhod va Xisrav dialogi shunchaki oddiy aytishuv yo savol-javob emas. Yigirma besh baytdan iborat ixcham bu dialog zamirida qancha g`oyalar va maslaklar qarama-qarshiligi, takullufsizlik va andisha jangi, g`aflat va ruhiy o`yg`oqlik kurashi, ilohiy ishq va bedardlik ziddiyati mujassam. Dialog shakli dramatik holatni yanada chuqurlashtiradi. Keyingi yillar o`zbek dostonchiligida bugungi ijtimoiy hayotga tariix ko`zgusi orqali qarash udumga aylanib borayotgandek bir holni ko`rish mumkin. Tarixlar, rivoyat va afsonalar qatidagi dramatik voqelik liriklashtirilmoqda. E.Vohidovning “Ruhlar isyoni”, A.Mahkamning “Tavajjuh”, E.Shukurning “Naqshbandiy”, Faxriyorning “Yoziq”, N.Afoqovanning “Jazo” O.Matjon “Beruniy”, “Pahlavon Maxmud” kabi qator dostonlarini sanab o`tish mumkin.

Nodira Afoqovanning “Jazo” dramatik dostoni 1997- yilda chop etildi. Shoir jahon badiiy so`z san`atida chuqur iz qoldirgan mavzuni ya`ni Odam Ato va Momo Havo hayoti bilan bog`liq rivoyatni qalamga oladi.

IBLIS (zaharxanda bilan)

Xohlasang o`zingni o`ldir, yoq, qil,kul,

Chiqmayman ichingdan, chiqmayman aslo!

Qoningi qo`shilib oqqum muttasil

Sening yetmish ikki tomiring aro.!

Rivoyatlarga ko`ra, Odam Ato va Momo Havo Iblisning qutqusiga uchib, jannatdan mahrum bo`lishadi. Zaminiy turmushlarida ham Iblis ularning ta`qib etadi. Insoniyat tarixining ilk davrlaridan boshlangan bu ta`qib bugungi kungacha ham davom etmoqda. Shoira Istiqlolgacha o`zi ko`rgan davr hayotini, tuzum yuzaga keltirgan turmush manzaralarini shu rivoyatlar asosida talqin etadi. «Jazo» dostonining ayrim o`rinlarida lirik tasvir bilan ifoda dramatik shiddat bilan poyoniga yetadi yoki aksincha, Shoira bosh qahramonlar ruhiyatidagi ziddiyatlarni tasvirlash bilan cheklanib qolmaydi, u dramatik shiddatni saqlab qolish maqsadida Iblis obrazini chizar ekan, g`oyalar jangiga zamin hozirlaydi. Odam Ato va Iblisning dialogi shunchaki aytishuv yo oddiy mashmasha emas. Bu-ilohiy va shaytoniy kuchlarning asrlar bo`yi davom etib kelayotgan azaliy to`qnashuvidir.

Xullas, inson hayotiga azaliy va abadiy mohiyat nuqtai nazaridan qarash, zamondoshlar ongida kechayotgan o`zgarishlar silsilasini butun murakkabliklari bilan aks ettirish, davrning epik manzaraini lirika vositasida chizish hamda serqatlamlikka, polifoniyaga intilish bugungi dostonchilikda liro dramatik ifoda tarzini ahamiyatini oshirdi. Va bu yo`nalish zamonaviy dostonchilik “sarhadi”ning muhim fazilatlaridan biriga aylanib bormoqda.

ARALASH TASVIR: Dramatik dostonlarda bo`rtib ko`ringan liro dramatik tasvir dramatik tur aloatlari bilan doston imkoniyatlarini kengaytirdi, uning ko`lamdorligini, oshirishga xizmat qildi. Shu bilan bir qatorda XX asrning 70-80-yillariga kelib Adabiyot agar insonning abadiy orzu umidlarini, armonlarini, ideallarini aks ettirsa, publitsistika uning muayyan davr uchun zarur bo`lgan sosial ehtiyojlarini, talablarini hal qilishga ko`maklashadi. Boshqacha aytganda, publitsistika inson va hokimiyat o`rtasida vositachilik qilsa, adabiyot inson va Iloh o`rtasida tilmochlik qilishga harakat qiladi. Adabiyot va publitsistikaning

qo`shiluvi 70-80yillar dostonchiligida qorishiq, aralash tasvirni yanada ko`chaytirdi.

Xabar, reportaj, etyud kabi adabiy-publitsistik janrlar doston tarkibidan joy ola boshladi. O. Matjonning “Gaplashadigan vaqtlar”, “Cho`ldagilar”, M. Yusuvning “Qora quyosh”, “Ko`hna quduq”, I. Otamurodning “Muin Bisus monologi” kabi qator asarlari misolida doston janrining voqelikni o`ziga xos qamrab olish chegaralari, tasvir imkoniyatlari publitsistika hisobidan kengayganligining guvohi bo`lish mumkin.

Aralash tasvir o`zining ajoyib sentizini topgan asarlar sirasiga Muhammad Yusufning “Ko`hna quduq” dostoni kiradi. “Ko`hna quduq” XX asr Buxora tarixiga bag`ishlangan M. Yusuf Buxorani ko`hna quduqqa qiyoslaydi, bu “Iskandarning shoxi bor” deb dardini quduqqa aytgan cho`pon afsonasini yodga soladi.

Chindanam mustaqilligimiz arafasida Buxoro ne-ne g`am anduhlarni bag`riga ko`mgan, obidalarini yanglig` ichidan nurab borayotgan va ayni paytda xazin sadolar taratib, ko`kka unsiz nola qilayotgan quduqqa o`xshardi. Shoir Buxoro safari natijasida ko`nglida tug`ilgan titroqlarini, his-xayajonlarini goh publitsistika ohangida, goh oddiy so`zlashuv uslubida, goh liro-romantik ba`zan liro-dramatik tasvirlarda muhtasham mazmunga jamlashga harakat qiladi.

M. Yusufning “Qora quyosh” asarini ko`zdan kechirib, universal tasvirning doston poetikasida mustahkam asosga egaligiga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin.

Doston xat bilan boshlanadi: “Jondan aziz singlim Qumri! Xatdan so`ng muallif izohi beriladi. “Muallifdan: Bu xatni men tasodifan topib oldim. Shu holda, imlolarini tuzatmay sizga havola etdim” Muallifning qisqa izohi hayot va o`lim, baxt va armon, inson va davr kabi boqiy falsafiy msalalarning dramatik tasviriga yo`l ochadi.

--- Umr nima, ey odam?

--- Umr yo`ldir bir quloq.
 ---- Armon nima, ey odam?
 --- Armon ham bir ehtiyoj.
 --- Omad nima, ey odam?
 --- Ayvondagi qaldirg`och.
 --- Orzu nima , ey odam?
 --- Bo`ldi, mening qornim och...

Muallif monologining bu diologik shakli besh banddan so`ng lirik tasvir bilan almashadi.

Soqovni qamashdi,
 Soqov “dushman”ni.
 Siyosiy savodsiz
 Anqov dushmanni...

Ana shu sakkiz bandlik lirik tasvir poyoniga yetgach, surgunda uchrashib qolgan ikki hamyurtning suhbatini tasvirlanadi.

- Sizni nega qamadilar, birodar?
- Sulaymon Azimovning “dumi” san deb!
- Kimning-kimning
- Aytdim-ku, Azimovning

Anchadan keyin biroz o`zimga kelib sekin borib yelkasidan quchdim:

- Uni taniysizmi?
- Yo`q, ko`rmaganman.
- Unda keling tinishvolaylik dedim,

- Menman o`sha siz aytgan odam!.

Dostonning boshlang`ich to`rt sahifasdan keltirilgan qisqa ko`chirmalardan ham ko`rinib turibdiki, o`zgarayotgan kayfiyat, ohang, tasvir dostonning unversalligidan darak bermoqda.

80-yillar oxiri, 90-yillarning boshida dostonchiligimizda modernizm san`atining namoyon bo`lishi, uning milliy an`analar bilan o`yg`unlashuvi aralash tasvirning sarhadlarini kengaytirdi. Prof U.Normatov va adabiyotshunos U.Hamdamning “Dunyoning yangicha ko`rish ehtiyoji” nomli adaiy suhbatida A.Qutbiddin Faxriyor dostonlaridagi ana shunday o`ziga xoslik, originallik teran tadqiq etiladi.

M.Yusuf “Qora quyosh”, “Ko`hna quduq” asarlarida qo`shiqchilik san`ati ( kuy bilan ijro etishga mo`ljallanganligi) dan, Faxriyor “Ayolg`u” sida tasviriy san`at (so`zlar vositasida rasm chizish) dan foydalanishga harakat qilganliklari dostonchlikda aralash tasvirning yangi-yangi ko`rinishlari yuzaga kelishi tayinligini ko`rsatmoqda.

Komillik falsafasi bugungi dostonda lirik qurilish ustivorligini ta`minlayotgan xislatlardandirki, bunga ham alohida e`tibor qaratmoq lozim. Badiiy so`z san`atida komil inson masalasi tayanch nuqtalardan biri hisoblanadi. “Olamning yaratilishidan maqsad inson, insonning yaratilishidan maqsad esa komil insondir”- deb yozadi Usmon Turar.

“Komillik yo`liga kirgan inson shariat, tariqat va haqiqat bosqichlarini bosib o`tishi kerak. Mumtoz adabiyotda bu yo`l insonni ruhiy, ma`naviy kamolotga yetaklovchi yo`l hisoblanadi. Albatta, tasavvufda komil inson ilohiylashtirilgan- uning mezonlari yuksak. Komil insonning zamindagi timsoli sifatida so`nggi payg`ambar- Muhammad alayhissalom e`tirof etilgan. Qolgan anbiyo avliyoning kamolati esa ul zotga nisbatan olingan. Demak , biz ham shu ilmu ma`rifati yuksak, xulqu odobi go`zal, so`zi va ishi ko`pchilikka ibrat bo`ladigan shaxslarni, obrazlarni barkamol insonlar deyishga haqlimiz. Ruhiy poklanish, tozarish jarayoni

zamonaviy dostonchilikda o'zgacharoq tarzda amalga oshmoqda. XX asr ibtidosidan 80-yillargacha yaratilgan dostonlarda komil inson masalasi go'yoki kun tartibidan tushib qolgandek taassurot qoldiradi.

Tasavvuf adabiyotida inson o'z nafsiga qarshi kurashgan bo'lsa, XX asr adabiyotida inson o'z nafsiga qarshimas, o'zgalarga qarshi kurashdi XX asr adabiyotida insonga munosabat, hayotga munosabat davr mafkurasi bilan bog'liq holda keskin o'zgardi. G'oyalar insonni emas, inson g'oyalar xizmatkoriga aylandi. Shu sabab asrlar davomida Sharq adabiyotida yetakchi mavzu sanalgan komil inson masalasiga e'tibor susaydi. Istiqlol arafasi, aynqsa, 90-yillar adabiyotida tasavvuf an'alarining birinchi masalasiga aylantirdi.

1.2.Lirik doston va bosh obraz.

(Ikrom Otamurod lirik dostonlari misolida).

Lirik dostonda asosiy e'tibor tashqi olamga emas, kishining botiniy olamiga qaratiladi va lirik she'rga xos unsur yetakchilik qiladi. Lirik esa ichki kechinma bilan fikr uyg'unligining mahsulidir. Lirik kechinma tarkibini esa fikr va his munosabati tashkil qiladi. Buni V. G. Belinskiy shunday talqin qiladi: "She'riyatda fikr nima? Ushbu savolga qanoatlanarli javob bermoq uchun his nima, degan masalani hal qilish zarur. Xissiyot, o'zining etimologik ma'nosiga ko'ra, tanimiz, jismimiz, qonimizga tegishli. His va sezgilarning o'zaro tafovuti shundaki, keyingisi tanimizda biror moddiy jism ta'sirida qo'zg'algan jismoniy sezgi, birinchisi ham jismoniy, biroq u fikrdan tug'ilgan sezgi. Shu sababli ham qandaydir hisob-kitob yoki quruq mulohazalar bilan mashg'ul bo'lgan odam hissiyotidan to'liqlanib, larzaga tusharkan, qo'lini ko'kragiga yoki yuragiga mahkam bosib oladi. Chunki ko'kragida nafasi bo'g'iladi, chunki ko'kragi qisadi yoki kengayadi, yonadi va sovqotadi, chunki yuragi orziqadi, titraydi, deysinib uradi; shuning uchun u chekinadi va qaltiraydi, qo'llarini ko'taradi, butun taniga boshdai-oyoq qaynoq ter qoplaydi, sochlari tikka turib ketadi. Binobarin, asar fikrchan, biroq hissiyotdan mahrum bo'lishi mumkinligi juda tushunarli; bunday holda, o'sha asarda poeziya bo'larmikan? Aksincha, his bor ekan, fikr bo'lishi muqarrarlighi ham juda tushunarli bir hol. Tabiiyki, his teran bo'lgan joyda fikr ham teran bo'ladi va, aksincha...

Shoirning botinida tug'ilgan fikr, aytish mumkinki, uning jismiga turtki berib, hayajonga soladi, qonida o't yoqib, ko'ksida tipirchilab uyg'onadi. Fikr hissiyotidan holi bo'lishi mumkin, usiz yashay ham oladi, lekin hissiyot fikrdan holi, undai ajrab yashay olmaydi. Chunki fikrsiz hissiyot insoniy emas, hayvoniy tuyg'udir. Bu narsa lirik qahramonsiz yuzaga kelmaydi. Lirik qahramon esa o'z shaxsini tanigan, o'zini shaxs sifatida anglagan, o'zini olam ichra yana bir olam deb bilgan insondir. U o'z shaxsini olam bilan qiyoslaydi, o'zini unga qarama-qarshi ko'yadi. Lekin undan o'zini tashqarida emas, u bilan tutash va payvasta ekanligini qayd etadi. "Ammo hech qachon olam qarshisida

o'zini batamom unutib qo'ymaydi. Olam bilan birligi, bir butunligini, ya'ni *"Men va borliq", "borliq va men" degan juftlik hamisha o'z hukmini yuritadi"*². Bu xususiyat bugungi lirik dostonlarning muhim belgisidir. Shuningdek, shoir diqqatida voqea-hodisalar tasviri emas, balki undan olgan taassurot, ta'sirlanish orqali ichki kechinmalar, xotirotlarga berilish orqali qalb to'qinlanishi, hissiyotning junbishga kelishi mohiyati tasviri asosiy o'rinni egallaydi. Unda kechinmalarning tasviri emas, kelib chiqish sabablari, holati ta'sirchan bir ruhda tahlil etiladi, tuyg'ularning dil izhori emas, o'zi o'rganiladi va inkishof etadi..

Ikrom Otamurodovning **"Ichkari... tashqari..."** nomli dostoni insoniyatning ikki botiniy va zohiriy hayotini falsafiy mohiyatining inkishofiga bag'ishlangan. Inson hayotining mukammalligi bu ikki narsaning uyg'unligiga, bir-birini to'ldirishga bog'liq. Nazariyasiz amaliyot, amaliyotsiz nazariya bo'lmaganidek, ichkarisiz tashqari, tashqarisiz ichkari to'lamas. Chunki tashqi hayotning to'laligi, ichki hayotning mukammalligiga bog'liq. O'z navbatida, tashqi olam ham ichki olamga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shundan shoir yozadi:

Ichkari tashqariga chiqmoq istayur,
Istayur tashqariga to'luvni.
Tashqari ichkariga kirmoq istayur,
Istayur ichkarida bo'luvni.
Ichkari tashqariga chiqmoq istayur,
Istayur tashqariga javobni.
Tashqari ichkariga kirmoq istayur,
Istayur ichkarida tavobni.

Va hokazo.

Ma'lumki, inson fikrlash, mulohaza qilish qobiliyatiga ega bo'libdi-ki, tashqi olamni mukammal qilishga intiladi, lekin bunga muyassar bo'lgani yo'q. Chunki insonning o'zi hali to'liq mukammallikka, komillikka zrishmagan. Sababi ma'naviyati juda ilgarilab ketgani yo'q. Zigmund Freydning fikriga ko'ra, "odamzod o'zining mohiyatini bilmaydi yoki... bor haqiqatni tan olgisi kelmaydi.

Bu borada u yo riyokorlik qiladi yoki o'zi xususida, haqiqatan ham, chuqurroq tushunchaga ega emas"¹.

Ikrom Otamurodovning dostonidagi satrlarni o'qir ekanmiz, bu fikrda haqiqat borligiga tan beramiz:

Ichkari - xo'rsinik.

Tashqari - xandon.

Ichkari-zabun.

Tashqari - muqtadir.

Tashqari - rutubat. Ichkari – safo.

Tashqarigiryon. Ichkari - chamangiz.

Bu holatni ikki ma'noda tushunish lozim. Hozirgi kunda bu ikki olam - tashqari va ichkari bir-biriga uyg'un emas. Inson tasavvuridagi olamni tashqarida ko'ra olmaydi. Chunki insonlar ilohiy axloq bilan yashamayapti. Unga yo'l qo'ygan tashqi olamdan bu kabi shaxslar mamnun. Vaholanki, ularning a'molidan tashqi olam simyon. Ilohiy axloq bilan yashaydiganlar, ya'ni o'zining mohiyatini anglaydiganlar esa sukunatda nola qiladilar. Ilohiy axloq bilan yashamaydiganlar haqida Qur'oni karimda shunday deyilgan: "Mol-mulk, bola-chaqa dunyo, hayotning ziynatidir. Parvardigoringiz nazdida esa abadiy qoluvchi yaxshi amallar savobliroq va orzuliroq (orzu qlishga arziqliroqdir)"¹, Demak, barcha ilohiy axloq bilan yashasa, ichki va tashqi olam uyg'un kechadi, dunyoviy olam mukammallashadi, chunki insonning amallari keng quloch yozadi. Oqibatda inson dunyoviy saodatga erishadi. Bu esa inon ko'nglining pokligiga bog'liq, Chunki ma'rifatli odamning ko'ngli hayotning har bir jabhasidan poklanadi, o'zini anglab boradi:

Hayroning ham kanglungda,

Vayroning ham kanglungda.

Oring ham kanglungda,

Xoring ham kanglungda...

To'zing ham kanglungda,

o'zing... ham kanglungda...

o‘zing... ham kanglungda...

¹ "Tafakkur" jurnali, 2001 yil, 4-son, 63-bst.

Istiqlol davriga kelib adabiyot o‘z o‘zaniga tushdi. Ya’ni voqea va hodisalar tasviri, ularning yuzaga kelishining dialektik qonuniyatini ochish o‘rniga, asosiy e’tiborni inson¹ ko‘ngliga qarata boshladi. Bu juda to‘g‘ri yo‘ldir. Chunki insonning ko‘nglini kashf qilish odam va olamni kashf qilish demakdir. Bu borada shoir shunday yozadi:

Kanglumning ichiga kirib boraman,
Kanglumni axtarib, kanglum.
Zora topsam, zora-a men,
Intizor munglim?!.
Kanglumning ichiga kirib boraman,
o‘zimni axtarib ruhim.
Zora topsam, zora-a men,
Joni to‘zib?!

Muhammad G‘azzoliy shunday yozadilar: "Hazrati Ali deydi: "...Kimdaki olti xil tabiat jamlangan bo‘lsa, u jannatga tushadi, jahannamdan omon qoladi: Oллоhni tanib, unga itoat etsa. Shaytonni tanib, unga ergashmasa. Haqni tanib, unga taslim bo‘lsa. Botilni tanib, undan qochsa. Dunyoning havoiiy hayotini tanib, uni tark etsa, Oxirat hayotini tanib, unga tayyorgarlik ko‘rsa"¹. Bunga imoni mustahkam odamgina muyassar bo‘ladi. Chunki shayton turli yo‘l bilan yo‘ldan urishga halaqit qiladi, uradi ham:

Fitnayu ig‘volar to‘qiydi necha
Iblisning dasisa do‘koni.
Daq urib yugurar ko‘chama-ko‘cha,
Ichkari tirqishin poylab har oni...

Lekin shayton qutqisiga berilgan zot o‘zining kimligini unutdi va narsani orzu qiladi:

U zot bironta nihol ekmagan,

Mehr ham bermagan biror niholga.
Lekin
Daraxtlar soyasidan
Umidvor bo‘laveradi,
Umidvor bo‘laveradi.
Daraxtlarning quyuq-quyuq soyasidan
Judayam.

Vaholanki, Olloh yaxshi amal qilganlarga mag‘firat qiladi. Doston zamirida sharqona falsafa yotadi. Bu falsafa qandayligini G‘azzoliy asaridan topamiz. Muhammad G‘azzoliy yozadi: "... Dunyo hayoti benihoya chuqur bir dengizdir. U yerga ko‘p kishilar cho‘kdi. Bu hayot dengizida kemang Taqvo bo‘lsin. Kemangning ashyolari Ollohga Iymon bo‘lsin. Yelkani Ollohga Tavakkal bo‘lsin. Shunday bo‘lsa... hast dengizida cho‘kmasdan omon qolasan"¹. Bu falsafiy haqiqat doston zamiriga singdirilgan shoir g‘oyasi hamdir. Bu fig‘on zarblari yurak urushi kabi tinish belgilarda dukurlab, aks —sado beradi, go‘yo. Matnning «niqobi» ostidagi qalb ovozi ruhiy kechinmaning goh so‘nishi, goh yuqori pardalarini ifoda qiladi:

Kuning ham kanglungda,
Tuning ham kanglungda.
Sunuting ham kanglungda,
Unuting ham kanglungda...
To‘zing ham kanglungda,
O‘zing ham kanglungda.
Uzing... ham... kanglungda...
O‘zing... ham... kanglungda...

... Birgina o‘zingsan o‘zingga yarar,
Birgina o‘zingsan o‘zingga soyim.
Kanglum... kang... lum...
... Gulini sovuq shopurgan daraxt...
Qulfini zang erkalatgan uy...
Huzurini sandiq ko‘rgan to‘n...
Bo‘xchada taxlanib ox urgan ro‘mol...
Hasham qo‘rg‘onida diliqqan sunbul...
sog‘inib — sog‘inib...
sog‘inib — sog‘inib...
sog‘inib — sog‘inib...
sog‘inib — sog‘inib...
sog‘inib — sog‘inib...
sog‘inib — sog‘inib...
Kanglumning ichiga kirib boraman,
Kanglumni axtarib, kanglum.
Zora topsam, zora —a, mann,
Intizor munglim?!
Kanglumning ichiga kirib boraman,
Sog‘inchimni axtarib, sog‘inchim.
Zora topsam, zora —a, man,
Qirmizi g‘uncham?!

Bozor... Taloto‘m... Tap tortmay...

Bir to‘da... Sot —sot... Ol —ol... to‘palang...

Yugurgan yugurayotir kartmay...

To‘xtagan oyoq osti... yutar chang...»

O‘z ko‘nglini anglash, izlash, taftish etishga intilish jarayonida «men» xilma —xil xayot haqiqatlarini anglab boradi: asli bu dunyo bozorga o‘xshashini; yugurgan yugirgilab ketishini; birov halol, birov xarom molini «o‘tkazishini»; to‘xtab qolsang, oyoq osti bo‘lib, chang yutishingni...Ichkari — ko‘ngil makoni. Tashqari esa hoyu havaslar makoni. Ko‘ngilda dard, iztirob; tashqarida — sho‘x — xandonlik. Ichkariga dardlar to‘kiladi, iztiroblar cho‘kadi, ovoz chiqarib aytilmagan yo ayta olmagan so‘zlarimiz xo‘rsinib «kiradi». Ko‘ngil bor ranglari, hayqirig‘u fig‘onlari bilan tashqariga otilib chiqishni istaydi. Tashqari esa ichkaridan taskin, xayr, Rahmon topmoqlik istaydi.

«Ul zot birorta nihol ekmagan,

mehr ham bermagan biror niholga

Lekin

Daraxtlar soyasidan

umidvor bo‘laveradi,

umidvor bo‘laveradi,

daraxtlarning quyuq —quyuq soyasidan

judayam...

g‘amini ichiga yutaverib

o‘ziga olaveradi dardini,

toqatga aylandi,
bardoshga aylandi
cho‘kirtak
daraxt...
Naqshinkor darvoza har kun o‘zga tus,
har kun o‘zga chiroy olar devorlar.
Marmarlar egnida yaltiragan po‘st
Har kun gullar havorlab.
Tashqarida kutib yag‘rini,
qizg‘aldoqlar yalar qovurmoch...
Tashqarida kezar izg‘irin,
hapqirar, hovliqar ayozi.
Haroratga lim —lim chog‘iri
ichkarida yonboshlaydi yoz’’²

kabi misralar «ichkari» va «tashqari»ga xos hayot haqiqatlari falsafiylikka yo‘g‘rilib ifodalanganini ayon etadi. Qandaydir vaziyatda «ichkari»ning eshiklari ochiladi, ko‘ngil dardlari qalqib chiqadi. Qandaydir vaziyatlarda «ichkari»ga «tashqari» quloq tutadi yo «mo‘ralaydi ichkari tomon». Yana boshqa holatlarda «ichkari» bilan «tashqari» joy almashinadi: «Ichkariga kirdi tashqari». Shoir ayni holatlarning sabab va oqibatlarini poetik taxlil qilib, inson qalbi orqali his etib, anglanuvchi hayot manzaralarini turli —tuman jihatlardan tasvirlaydi. **Tasvir markazida esa shoir «ko‘ngli» turadi. «Ko‘ngul»ni chertgan tuyg‘ular, unga kirib o‘rnashgan hayajonlar — u iztiroblar tashqaridagi insonlararo munosabatlarga bog‘lanadi; hayot hodisalaridan ta’sirlangan ko‘ngil holatiga monand chizgilarida gavdalanadi.**

² Барча кўчирмалар И.Отамуроднинг “Тавр” номли шеърлар ва достонлар тўпламидан олинди..

Ikrom Otamurodning "**Sopol siniqlari**" (1994) nomli dostoni voqealar emas, tuyg'ular asosiga qurilgan. Biz qahramoning falsafiy mushohadasida, xotiralarida, dardlarida dunyo mohiyatini, unda insoniyatning o'rnini, yurtning boshiga tushgan kulfatlarini anglaymiz, eng muhimi dunyo deb atalmish borliq voqea-hodisasidan iztirobga tutingan qalb tebranishlarini his qilamiz. Bu narsa Holat va Rang deb nomlangan qismlari orqali beriladi. Holatlar, o'z navbatida, mumtoz adabiyot dostonlarini yodga soladi. Ya'ni maqolat va hikoyatni. Ma'lumki, maqolat nazariy yo'nalishda bo'lsa, hikoyatda o'sha yo'nalishlar amaliyotda o'z ifodasini topgan. Mazkur dostonda Holatda falsafiy-nazariy yo'nalishda hayot haqiqati ochib berilsa, Rangda esa kechagi va bugungi hayot manzaralari o'z tajalisini topadi. Holatda shoir yozadi:

...Odam bolasi
bir xil hayot tarzidan,
qachondir kim bo'lmasin, zerikadi.
Zerikish-
Boshqa shaklning istagi...
Ruhiyatda sodir bo'lgan bu hodisa —
.Yangi royishni,
...Sog'inib yashaydi...
notanish manzillarni...

Vaholanki, Olloh yaxshi amal qilganlarga mag'firat qiladi. Doston zahirida sharqona falsafa yotadi. Bu falsafa qandayligini G'azzoliy asaridan topamiz. Muhammad G'azzoliy yozadi: "... Dunyo hayoti benihoya chuqur bir dengizdir. U yerga ko'p kishilar cho'kdi. Bu hayot dengizida kemang Taqvo bo'lsin. Kemangning ashyolari Ollohga Iymon bo'lsin. Yelkani Ollohga Tavakkul bo'lsin. Shunday bo'lsa... hast dengizida cho'kmasdan omon qolasan"¹. Bu falsafiy haqiqat doston zahiriga singdirilgan shoir g'oyasi hamdir.

Bunday holat ma'naviyati boy, ruhi tetik, doimo yangilikka intiladigan shaxslarda ro'y beradi. Dunyo taraqqiyoti shu kabi insonlarning say-harakati

tufaylidir. Dostondagi lirik qahramon shunday insondir. U hasndan ham, o'zidan ham qoniqmaydi. Uning tabiati, asta-sekin kitobxonga ham ko'chadi. Rangda shunday satrlarni o'qiymiz:

Mog'orlaydi. Zang bosar. Muzlar,
Unutilar ko'p yo'laklari.
Tepalar qa'ridagi izlar -
Xotira bo'laklari.
Loyga **botib** siniqqan kamon -
Yurt ori deb to'kilgan darddir.
Qo'lda lochin tutgan pahlavon —
Qadrin quchib yiqilgai marddir.
ko'milgan imondir,
ko'milgan tildir
tepalar...
Ko'milgan Vatandir.
Ko'milgan eldir
tepalar...

Bu yerda yurtimiz boshidan kechirgan kechagi manzaralari o'z ifodasini topgan. Haqiqatan ham, totalitar tuzum ma'naviy qadriyatlarimizga - dinimiz, tilimiz, imonimizga daxl qilib, butun jahonga shuhrati ketgan Vatanimizdan judo qilgai edi. Bu manzaralar xotira orqali chiziladi. O'z navbatida, xotira ikki vazifani bajaradi. Ma'lumki, o'tmishsiz kelajak yo'q. O'tmish xotiralarda tiklanadi. Xotiraga berilgan odam o'zini ham anglay boradi. Shuningdek, xotirlash ongning fikrlash jarayonini ham belgilaydi. Fikrlagan odamning o'z olami bo'ladi:

Yolg'iz olamda yolg'izman.
Ruhim ostonasida turar
Yolg'izlik
Umid eshigin o'ksik tavqasin chertib.

Kishining umidlari amalga oshmasa, ko'ngli o'ksiydi. O'ksigan ko'ngil xotiraga beriladi. Lekin u ham xursand qilmaydi. Chunki qadriyatlar vayron qilingan:

Yolg'iz olamda yolg'izman,

Ruhim ostonasida turar

Yolg'izlik

ko'rishar —

umid ila xotira eshigin

ikki tavaqasi.

O'ksik va siniq ikki tavaqasi.

Rang qismida quyidagi misralarni o'qiymiz:

Daraxtning tomiriga qurt doridi,

o'zidan paydo bo'lgan qurt... zirqiroq...

Zanam tanasi... shoxlari xoridi...

Barglari — quroq

Qancha bo'hronlarga chidagan bardosh.

Azamat daraxt...

...quruq savara...

yelga berolmayin dosh —

yuragimga yiqildi daraxt.

Bu yerda daraxt bizga ma'lum bo'lgai tabiatning mahsuli emas.

U—timsol. Vatan timsoli, Qurtlar ham tabiiy qurt emas. U - insoniy g'ururi, vatan, millat tuyg'usi yo'q, hamiyatsiz, xoin shaxslar. Shular tufayli ming yillar qancha tashqi qumlarga, bo'htonlarga chidash bergan Vatan bu “qurt”larga dosh berolmay quladi. Bu hol shoirning yuragini zirqiratadi. Holatda yozadi:

U bitta ko'za oldi.

Kasbining tufrog'idan yasalgan ko'za

Labi uchgan. Dastasi singan...

Hayron bo'ldi kulol. Butunlari turibdi, axir,

Yana har xillari!...

Kulol hayron bo'lganday kitobxon ham hayron bo'ladi va sirini anglashga intiladi. Keyingi misralardan anglaydi. **Siniq ko'za siniq qalbniig ramzi.** Odamning qalbi katga yo'qotishdan sinadi. Lirik qahramon ham shu holga tushgan:

Siniq ko'zani bag'riga bosdi avaylab.

Siniq kanglu kushoyish topganday bo'ldi.

Siniq...

Siniq kangul...

do'ppaygan qabr...

Nimjon nihol.,

Kangluning armoniga to'ldirib,

ko'zining chashmiga to'ldirib,

qayg'usining qayg'usiga to'ldirib,

to'ldirib...

to'ldirib...

ko'mdi... siniq ko'zani...

tufrog'ini tufrog'iga qo'shdi...

Bu yerda lirik qahramon siniq ko'zani ko'mgani yo'q, siniq qalbimi ko'mdi. Bu ila o'z mahbubi bilan abadiy bo'lish imo-ishorasiii bildirdi. Nimjon nihol esa o'zi.

Keyingi misralarda lirik qahramon yanada bo'y ko'rsatadi. Uning o'y-fikr, kechinmalarida, xotiralarida odam va olam haqiqatini, shuningdek, insoniylik mohiyatini anglaymiz. Dostonning ahamiyati ham shundadir.

Tuyg'uni so'zlardan tashqari harflarda yoki tinish belgilarda ifodalash usulidan Ikrom Otamurod «**Yobondagi yolg'iz daraxt**» dostonida foydalangan. Bu xususiyatni bor nozikliklari bilan anglagan yosh olim A.Hayitov o'z qarashlarini quyidagicha bayon qilgan: «Tuyg'ular suratini belgilar orqali berish o'quvchini ham kechinmalarga sherik qilishning bir yo'lidir. «**Yobondagi yolg'iz daraxt**» dostonini mutolaa qilayotgan she'rxonda ruhiyatidan kelib chiqib, shoirning so'z shakliga tushmagan badiiy ifodasini o'yida, xayolida, ruhida yoki dilida davom etgirish imkoniyati bo'ladi. Shuningdek, dostonda o'quvchiga

tuyg‘ularining badiiy ifodasi uchun imkoniyat ayrim so‘z va so‘z birikmasiga muvashshah bitishi mumkinligi tarzida ham qoldirilgan”¹

YO YO D J
L ____ L ____ A ____ I
G‘ _ G‘ ____ R ____ M
I ____ I ____ A
3 ____ 3 ____ X
l _____ , _ t
i
K

Tuyg‘ular suvratini tinish belgilar vositasida berish usulidan Ikrom Otamurod «**Yarador umid otlari**» dostonida foydalangan edi. «**Yobondagi yolg‘iz daraxt**», «**Sopol siniqlari**», «**Ichkari... tashqari...**», «**Aning umidi**» dostonlarida bunday tasvir usuli kuchaytirilgan. Bu dostonlarda tuyg‘ularning, fikrning so‘zlar ishtirokisiz, faqat nuqtalar bilan bog‘langan o‘rinlari ham bor. Bu jihatlar muallifning chuqur ruhiy iztiroblarini ifoda etadi.

Shoirning 2003 yilda yaratilgan «**Xaritaga tushmagan joy**» dostonida ham «men»ning o‘z—o‘zini axtarish, o‘zligini topish, ko‘ngil manzil — makonini tayin etish yo‘lidagi kechinmalari poetik tahlil qilingan. «Tog‘lar qoramtir, ummonlar ko‘kish, o‘rmonlar yashil tus, sahrolar sariq, qaysidir yurt kelbatli, qaysisi oriq» xaritadan olmish joy. Shoir dunyo xaritasini tuzgan donoga qarata deydi:

“... sendan kichik bir iltimos,

¹ Шарқ юлдузи. 2002. 4-фасл, 151-152 бетлар

ranglaringga bir rang qo‘shginu, yana,
ellaru yurtlarning o‘rtasiga mos,
ko‘rinarli qilib rangin, hoynahoy,
ki shungacha esdan chiqib kelgan bir —
xaritaga tushmagan joy —

kangulning tarzini tushir...”

Aslida, ummonlar, dengizlar, daryolarning goh toshib, goh sokin to‘lqinlanib oqish holati, shakl —shamoyili, ranglari ma’nosiga bu dunyo qiyofasi mos tushadi. Daryo —yu dengiz girdoblari, o‘pqnolari kabi rahm — shavqat neligin bilmaydigan dunyoning aylanishi —yu, «tez obparastligi» ham o‘xshash. Eng ajablanarli tomoni shundaki, dunyo ranglari go‘yo insonlar qiyofasiga ko‘chib o‘tgan.

“Ko‘p narsani istab, qidirar odam,
Mayda — chuydalarga hohishin berib...
qiziq deysan, ajab deysan, yo Rab deysan,
Nega odam kanglun qidirmaydi hech?!
... Muhimi — kangul, kangulni qidirish,
Muhimi — kanguldir, kangulni topish...”

Shoir tilidan ko‘ngilni topish zahmat, azob, haqiqat izlash yo‘lidagi mashaqqatli hayot ekani bayon etiladi. Muhimi, niyatning pokligi, tilakning go‘zalligi, ruhning latifligi; «muhimi — odamlar seni sog‘insin, ko‘rganda mehr —la bag‘riga bosib, kuzatganda, kutib yana kelishing, xayr so‘zlaridan to‘kilib sog‘inch, umidlarga to‘lsin bu kangul...». Kichik narsalardan o‘zlikni baland tutish, mayda havaslar «quli»ga aylanmaslik, ezgulikdan harorat olib yashash orqali «kangulga aylanish, kangulni

asrash hissi» ulgʻaytirib borar koʻngilni. Oʻzi oʻz koʻnglini bilolmaslik oʻz koʻngliga begonalik nishonasi. Uz koʻnglini xor etgan kimsa «oʻzga ariqning shovrida oqar», manfaat loyiga belanar, nafs qurboniga aylanar va koʻnglini zor qaqshatar. Koʻngilga putur yetsa, odam olamni buzar, «qadrdonlar yovlashib, mehru muruvvat toʻzar». Oʻz koʻnglidan kechmoqlik undan —da yomon! Ruh pora —pora boʻlar, gʻurur choʻkadi, qalb qaqshaydi, nafsning bozori chaqqonlashadi, yurak — «xiyonatlar koʻmilgan qabrga» aylanadi. Bu manzara qanday maʼnoni anglatadi? «Xurdir — kangluni etganlar Vatan, kangluni topganlar — hurdir». Shu bois eng katta mamlakat koʻnguldir. Koʻngil mamlakatining xaritaga tushmay qolishi uning insoniyat tomonidan yoʻqotib qoʻyilganligini anglatadi. Odamlari — iymonga, daraxtlari eʼtiqodga, daryolari mehrga, togʻlari — gʻururga aylansagina, koʻngul mamlakatining chirogʻlari yoniq boʻladi. Odamlar oʻz koʻngullarini axtarib topsalar, koʻngul mamlakati yashaydi, inson jismidagi muqaddas joyga aylanadi.

Dostondagi shoir obrazi va uning monologlari vositasida «dunyo aks etgan xarita», «kangul», «oʻz koʻngliga begona kas», «nafs», «igʻvogar, xasadgoʻy, yolgʻonchi odam», «davrada gap bermaydigan odam», «safarga hirs qoʻygan sayyoh» kabi obraz — ramzlarning maʼnosi ochib berilgan, oʻz koʻngliga beganolik katta fojia ekanligi yoritilgan.

Ikrom Otamurodning **“Tagʻazzul”** 2005 yilda yaratgan poemasida mumtoz dostonchilik anʼanalari davom ettirilgan. Shu bilan birga mutolaa davomida shoirning voqelikka, ruhiyat kengliklariga yangicha nigoh bilan yondashganligi, “hissiy tafakkur holatlarini suratlantirish” (N.Rahimjonov)¹ sari intilayotganligini kuzatish mumkin. Poema “Xizonai omira” kitobidan olingan “Arab va hind shoirlari tagʻazzul binosini yaratdilar” degan epigraf bilan boshlanadi. “Tagʻazzul” - bu gʻazal soʻzining koʻpligi boʻlib, oshiqlik, ishqiy sheʼr maʼnolarini

¹ Раҳимжонов Н.Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. Тошкент:Фан, 2007. 166-б

bildiradi. Shoir soʻzning ana shu maʼnolaridan kelib chiqib, poemaga yondashadi. Tagʻazzul binosi bu oʻrinda ramziy mazmun tashiydi. Chunki arab va hind shoirlari gʻazalning yuksak namunalarini yaratgan. Natijada “gʻazal binosi” vujudga kelgan:

Tagʻazzul - koʻp qadim binodir, zotan,

Meʼmorlari-kangul fuqarolari.

Ishqqa doxil suyagi surmalarga tan -

jismimda nish otgan ishq yarolari.²

Shoir tagʻazzulni “koʻp qadim bino” der ekan, uning Sharq adabiyotidagi koʻplab goʻzal namunalariga ishora qiladi. Maʼlumki, inson tanasi mukammal tuzilgan va undagi har bir aʼzo muhim vazifani ado etadi. Shoir insonning tana tuzilishiga asoslanib, gʻazal binosi tarhini ramziy usulda chizadi. Meʼmor esa koʻchma maʼnoda koʻngil fuqarolaridir. Demak, bu binoni muhabbatdan ozor chekkan qalblar qura boshlagan.

Tagʻazzul binosin shiftini bezab

terilgan ogʻochlar - ustixonlarim.

Koʻzlarim — qaldirgʻochga intiq deraza,

Naqshlar toʻqigan suvogʻ-qonlarim (125-bet).

Tagʻazzul binosining “shiftini bezab turgan” -mustahkam saqlab turgan ogʻochlar esa lirik qahramonning ustixonlari-suyaklaridir. Bu mutanosiblik keyingi satrlarda yanada toʻlishib boradi. “Koʻzlarim- qaldirgʻochga intiq deraza” satri shoirning betakror metaforasidir. Chunki inson aʼzolari ichida koʻzning bosh vazifasi borki, bu koʻrishdir. Aslida koʻzning derazaga oʻxshashlik asosida koʻchirilishida ham shunday maʼno bor.

² Отамурод И. Тағаззул. Тошкент: Шарқ, 2008. 124-б. (кейинги парчалар ҳам шу манбадан олинди).

Ko‘rinadiki, poema boshlanishidayoq betakror ramziy-timsoliy ifodalar orqali ishq binosining surati chiziladi. I.Otamurod bunda inson vujudidagi a‘zolar qanchalik o‘ringa ega bo‘lsa, tutsa, ishq binosida ham ular shunday benazir vazifalarni ado etishini o‘ziga xos mutanosiblikda ochib beradi.

Asarning keyingi qismida ko‘ngilga murojaat muhim o‘rin egallaydi. Binobarin, ishqning makoni ko‘ngil ekan, shoir unga alohida mazmun yuklaydi:

Ko‘zlarim selobin simirar qilqab,
huzn dayrosining qovjirab labi.
Ey mastona kanglum, bu nechuk xilqat-
men kabi notavon, g‘arib men kabi (126-bet).

Huzn so‘zi arabcha bo‘lib, qayg‘u, g‘am, hasrat kabi ma’nolarni bildiradi. Xilqat so‘zi esa yaratilish deganidir.³ Ko‘zlar selobi-ko‘z yoshlari. “Dayroning qovjiragan labi” ham metaforadir. Daryo so‘zi esa tag‘yir san’ati asosida dayroga aylantirilgan va bu esa she’riy satrlar ohangini mumtoz dostonlarga yaqinlashtirgan. Ishq hijroni, azoblari tufayli lab qovjiragan holga kelgan. Demak, qayg‘u daryosining “qovjiragan labi” ko‘z yoshlarni simiradi. Shu bois oshiq ko‘ngil g‘arib va notavon makonga aylangan.

Holu holotimga qatlamu qatlam
hajr siyohidan bitilgan tasvir.
Ey mastona ko‘nglim, bu nechuk matlab,
faqat kangul bilan anglanuvchi sir

Muqarrar san’ati bilan ziynatlangan dastlabki misrada (holu holot, qatlamu qatlam) oshiqning qalb manzarasi aks etgan. Ya’ni “hajr siyohidan bitilgan tasvir”-

³ Навоий асарлари луғати. Тошкент:Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. 655, 779-б

hijron ranglari oshiq tarzining qat-qatigacha singib ketgan. Shu bois shoir yana ko'ngilga murojaat qiladi.

Poemada falsafiylik va lirizm satrdan satrga o'tgani sayin kuchayib, bir-birini boyitib boradi. Binobarin, shoir bir o'rinda ko'ngilni "ishq dardini o'stirgan tufroq"qa, muhabbatni esa ko'ngilning tarjimai holiga mengzaydi. Yoxud oshiq qalbidagi sog'inch ham turfa metaforalar vositasida falsafiy mazmun kasb eta boradi. "Sog'inchim yo'llarga to'kilgan xazon, o'tgan, qaytgan poyi berur ozorni" satrlarida bu yorqin ko'rinadi. Chunonchi, xazon-yerga to'kilgan kuzgi barglar. Shoir sog'ichni ana shu xazonga o'xshatadi. Javobsiz qolayotgan muhabbat egasining sog'inchlari oyoq ostidagi xazonga monanddir. Zero, Sharq g'azaliyotida hijrondan zada bo'lgan qalb manzaralari yuksak badiiy shaklda o'z ifodasini topgan. Shu an'analarning davomi o'laroq I.Otamurod ham poemaga g'azal ruhini olib kiradi. Garchi asar shaklan aruz vaznida yozilmagan esa-da, uning mazmunida, har bir satrida g'azal ruhi sezilib turadi. Ko'ngil, ishq, hijron, vasl, sog'inch singari badiiy timsollar bor bo'yi bilan o'zini ko'rsatib turadi; ularga shoir teran ramziy ma'nolar yuklaydi. Ayni paytda arabcha so'zlarning qo'llanilishi ham poemani mohiyatan mumtoz asarlarga yaqinlashtiradi. Bu- keyingi yillar o'zbek poemachiligidagi alohida uslubiy yo'nalishni tashkil etadi. Poemani o'qish davomida kitobxon g'azal olamiga oshno tutinadi. Chunki shoirning har bir misrasi ohorli tashbehlar, betakror metaforalar bilan ziynatlangan. Ular she'rxonni hayotni beqiyos tafakkur kengliklari orqali chuqur anglashga chorlaydi. Asarning yana bir muhim xususiyati, uning monolog tipida yaratilganligidir.

Demak, yuqorida tahlil etganimiz "Naqshband", "Tag'azzul" poemalari o'zbek mumtoz dostonlari ruhida yozilganligi, o'tgan asrning 90-yillari o'zbek poemachiligidagi ijodiy-uslubiy izlanishlar mevasi sifatida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ularda komillik sari bo'y cho'zayotgan inson, ko'ngil nidolariga kuloq tutguvchi shaxs, ijtimoiy hayotda sodir etgan xatolaridan ozurda bo'lgan qalb timsollari yaraqlab turadi. Bu esa shoirlarimizning dunyoga, ijtimoiy voqelikka

teran nigoh, tashlayotganlaridan, ko‘ngil deb atalmish maxzanning qat-q atlariga tobora chuqurroq kirib borayotganlaridan dalolat beradi.

dostonida ishqbozlik, oshiqlik kechinmalaridan, ishq
«yarolari»dan qad ko‘targan binoni tasvirlaydi:

“Tag‘azzul — ko‘p qadim binodir, zotan,

me‘morlari — kangul fuqarolari.

Ishqqa doxil suyagi surmalarga tan —

jismimda nish otgan ishq yarolari”, —

deb yozadi shoir.

Ishq binosining devorlari sog‘inchlardan, sabrlar, sukunatlar, yonishlardan bunyod bo‘lgan. Shifti esa bu binoning «fuqarolari»dan biri shoir kabi ishqbozlar «ustixonidan terilgan og‘och», «ko‘zlarim — qaldirg‘ochga intiq deraza»; «naqshlar to‘qigan suvog‘ — qonlarim»; «sahnlarini yoritgan chirog‘ — jonlarning joni»; «eshigi — zil ketgan yuragim darzi»; binoning shakli — xajr yomg‘irlari yemirgan vujud ko‘rinishida; bul bino yaralgandan buyon «kangulning nolasi, kangulning kuyi» sas berur. Shoir ritorik so‘roq usulidan va misralar takroridan poetik fikr mohiyatini turli nuqtalardan ochishda foydalangan: ishq yarolaridan bunyod bo‘lgan ko‘ngil uyining ne sabab «kunduzi firog‘u hijrondir tuni?!» «Bu nechuk xilqatki, shoir kabi notavon, undayin g‘arib? Ko‘ngul uyini qurshagan bu nechuk dardki, qayg‘uni ham, g‘amni ham sel qilur?!» Savollarga javob izlayetgan «shoir obrazi» — «men» tilidan ta’kidlaganiday, bu sir «faqat ko‘ngul bilan anglanuvchi sir!» «Ko‘ngulda ishq yaproq yozmagan odamlar «men»ning dardlarini, his — tuyg‘ularini anglashdan yiroqdirlar, binobarin, ishqbozlarga tuyg‘udosh bo‘lolmaydilar. Shoir o‘z ko‘nglining «yirtilgan varag‘lariga» nazar tashlab, «kanglum — ishq dardini o‘stirgan

tufroq, ishq — tarjimai holi kanglumning», — deya umr bo‘yi o‘z ko‘ngliga intilib yashaganligini ta’kidlaydi. Bu yo‘lda har qancha ranj chekmasin, azob tortmasin, «men» o‘z imonu e’tiqodidan, tanlagan yo‘lidan chekinmaydi. Zotan, bu mashaqqatli yo‘l — ko‘ngil uyi tomon eltuvchi, tag‘azzul binosiga yetaklovchi yo‘l edi.

«Oldin kunlar...

So‘ngra oylar...

Keyin yillar...

Baribir...

Bordir har lahzada nimadir ilinj,

Bordir har lahzada nimadir payg‘om... »

«Men» o‘z maqsadiga yetishda ilinju ishonchga, sabrga suyanadi, faqat buyuk ishq bilan tag‘azzul binosining me’morlaridan biriga aylanishi mumkinligini anglab yetadi:

“Men senga intildim, ko‘z yoshim yutib,

Kanglumga yomg‘irlar yog‘di betinim,

Men senga intildim, o‘zim unutib,

Zohir lahzalarning har tun, har kuni”.

Bu manzilga yetish uchun «men» buyuk ishqdan o‘z ko‘ngil uyini barpo etishi darkor. Barcha sinovlarga dosh berib, yuragiga nayzalar botib, «kuyayotgan jonu kul bo‘lgan bag‘ir» bilan qadimiy tag‘azzul binosiga yetib borgan «men» dunyoning «azob to‘la jom»ligi, «qaqragan lablarga» tomchi suv tutmaydigan bemehrlar joyi ekani; rostga qayishmay, yolg‘onlarga zeb bergan, tunini «tong yorig‘i» sindirgan, «ishqsiz ishq dunyosin unutgan dunyo»ga ro‘baro‘ keladi. Dunyo ham, undagi odamlar

ko'ngli ham rangsiz, imoni yemirilgan; tag'azzul binosini qurshagan
borliqning sukuti unga ko'chgan:

Sukunat -

tag'azzul binosida tang —

poymonning sinishi, ahdning sinishi

...qaldirg'och ko'zlarin tushida ko'rar —

dardlarning, g'amlarning qa'riga botib...

Uchayotgan barglarga termulib turar —

tag'azzul binosi sukunatni yutib...

Ma'lum bo'ladiki, qalblarning mudrashi — sukunatdan, ishqsizlikdan, bemehrlikdan darak beradi, buning oqibatida insonlarning ko'ngil binolari nurab bormoqda. Rangsiz tuyg'ular bo'm —bo'sh ko'ngillarni ifoda etmoqda, yashashdan maqsadning noaniqligi, ahdu poymonning «siniqligi», ko'ngil eshiklarining darz ketishiga, oxir —oqibat, ko'ngil me'morlarining buyuk ishqdan bunyod etgan qadimiy tag'azzul binosi yemirilishiga sabab bo'lmoqda. Kitobxon «men»ning dardchan, so'nib borayotgan nolasi ta'sirida meqr — muqabbat, imon — e'tiqod, buyuk ishq binosiga talpinadi, uni asrab qolish istagida o'z ko'ngil tag'azzulini mustaqamlash maylini tuyadi. **Shu ma'noda Ikrom Otamurodning ko'p yillik ijodiy izlanishlari mahsuli bo'lgan “Tag'azzul” dostoni lirik poemaning yangi bir falsafiy mushohadakorlik, timsolli fikrlash va chuqur lirizm bilan yo'g'rilgan ko'rinishi sifatida ahamiyatlidir.**

Bob bo'yicha xulosalar:

1. Ikrom Otamurod «Yarador umid otlari». «Yobondagi yolg'iz daraxt», «Sopol siniqlari», «Ichkari... tashqari...», «Aning umidi»

dostonlarida tuyg'ularning, fikrning so'zlar ishtirokisiz, faqat nuqtalar bilan bog'langan o'rinlari ham bor. Bu jihatlar muallifning chuqur ruhiy iztiroblarini ifoda etganligini ko'rishimiz mumkin.

2. “Xaritaga tushmagan joy” dostonidagi shoir obrazi va uning monologlari vositasida «dunyo aks etgan xarita», «kangul», «o'z ko'ngliga begona kas», «nafs», «ig'vogar, xasadgo'y, yolg'onchi odam», «davrada gap bermaydigan odam», «safarga hirs qo'ygan sayyoh» kabi obraz — ramzlarning ma'nosi ochib berilgan, o'z ko'ngliga beganolik katta fojia ekanligi yoritilgan.

3.“Tag'azzul” dostonida Sharq g'azaliyotida hijrondan zada bo'lgan qalb manzaralari yuksak badiiy shaklda o'z ifodasini topgan. Shu an'analarning davomi o'laroq I.Otamurod ham poemaga g'azal ruhini olib kirgan va betakror ramziy timsoliy ifoda ishlata bilgan..

II BOB. Tarixiy voqelik va shoir shaxsiyati.

2.2. Usmon Azimning “Xalil Sulton “ dostonida lirik qahramon tabiati

Xarakterlarning betakrorligi, o‘ziga xosligi jihatidan U.Azimning “Xalil Sulton” dostoni alohida ajralib turadi .Ma’lumki ,Xalil Sulton Temurdan so‘ng uning taxtiga o‘tirgan shahzoda .O‘zining insoniy xislatlari bilan ko‘pgina ijodkor va ilm ahlining diqqatini tortgan shaxs A.Navoiy, Z.M.Bobur , Davlatshoh Samarqandiylar Xalil Sulton haqida iliq fikrlar bildirishadi .Tarixiy ma’lumotlarning guvohlik berishicha, Xalil Sultonga juda qisqa muddat tojdorlik nasib etdi .Umri yigit yoshida fojiali yakun topdi .Uning Shodimulkka bo‘lgan sevgisi ham musibatlar girdobidan chiqolmaydi. Ko‘rinib turibdi ,Xalil Sultonning bugun hayot yo‘li foje’ xalqalardan iborat. Buni chuqur anglab yetgan Usmon Azim Xalil Sultonning biografiyasini xronologik tartibda hikoya qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymaydi ,balki Xalil Sulton xarakteri ochiladigan oliy nuqtalarga,uning ruhiyat manzaralariga e’tibor qaratadi Doston davomida Xalil Sultonning liro-epik xarakteri dramatism va lirizm vobastaligida o‘zligini ko‘rsatadi .Atrofdagi beklarning,amirlarning xiyonati uni ruhiy ezadi .Shodimulkka bo‘lgan muhabbat bu ezgulikni yanada kuchaytiradi .

Xalil Sulton

Shodiyam ,bizlardan ixtiyor ketdi –

Hayot ummonida endi bir xasmiz

Qayga uloqtirsa, oqamiz nochor ...Xalil Sulton o‘zida tojdorlikni ,shoirlikni , oshiqlikni mujassam etgan murakkab xarakter. Uning tabiatan ko‘ngilchanligi bu murakkablikni yanada chigallashtiradi. Xarakter va xarakterlar aro ziddiyatlar konflikt rivojinjonlantirib turadi. Xalil Sultonning ruhiyatidagi ziddiyatlar uning boshqalar bilan bo‘ladigan qarama-qarshiligini bosib tushadi .Ayni shu sifatga asoslanib ,Xalil Sultonni lirik xarakter deyish mumkin ,biroq uning lirik xarakter tarzida kasb etayotgan qiyofasi liro-epik tasvir jo‘rligida amalga oshadi .U.Azim

Xalil Sulton hayotining eng dramatik lahzalariga ko‘proq e’tibor qaratadi .Dramatik lahzalar tasviri esa liro –epik omuxtalik bag‘ridan o‘tib chiqadi.

Shodimulkning nutqida Xalil Sultonning bo‘lajak fojiasiga ishora bor.

Shodimulk

Sultonim , jangohning qonuni qat’iy ,

Seni o‘ldirurlar, sen o‘ldirmasang .

Lirik dostonlarda xarakter shakllangan holda namayon bo‘ladi .“ Xalil Sulton” dostonida mazkur xarakterdan tashqari Amir Temur, Amir Xudoydod Shafqat devona, Ayol kabi talay xarakterlar ham yaratiladiki ,bularning har biri o‘ziga xos fikrlash tarziga, hayot yo‘liga , qiziqish va iroda yo‘nalishiga ega . Xalil Sulton o‘z hokimiyatini saqlab qolish uchun qattiq kurashishi mahv etishi bo‘ysunmaganlarni qilich yordamida tiz cho‘ktirishi ,saltanat niholini qon va ko‘z yoshlar bilan sug‘orishi oqibatida o‘z mavqeini saqlab qolish mumkin edi .Xalil Sulton bularning barchasini tushunar edi .Lekin u shunday yo‘l tutganida Xalil Sulton bo‘laolmasdi .Chunki uning xarakter mantig‘i bu narsani ko‘tara olmasdi .Uning tabiyatidagi halimlik, yumshoqlik bunga monelik qiladi .Taqdir uni saltanat shohsupasiga ko‘tardi va qismat undan ayovsiz bo‘lishni talab qilardi .Xalil Sultonning fe‘l-atvori qismat talabiga javob bera olmasdi .Shu sababdan U.Azim talqinida Xalil Sulton voqea-hodisalar girdobida keng quloq yozolmaydi ,oqimga bo‘ysunib ,chor-nochor suzadi ,xolos .Bu muayyan xarakterning ifodasi bo‘lgan harakat, iroda yo‘nalishidir . Xarakter o‘z mazmun mohiyatini faoliyatda ochadi .Shunisi ham borki, xarakter yuzaga chiqmog‘i uchun mazkur faoliyatda ,o‘ylarda, xatti-harakatlarda izchillik bo‘lmog‘i zarur . Asardagi Shafqat devona faoliyatida hali muayyan izchillik mavjud .U atrofdagilarning toshbag‘irligidan zada bo‘lgan qalb tasviri .Devona deyilganda pala-partish xatti-harakat qiladigan ,og‘ziga nima to‘g‘ri kelsa,shuni gapirib ketadigan kishi gavdalanadi .Biroq Shafqat devona unday emas .Uning qarashlarida ,fikrlarida ,o‘ylarida ma’lum bir izchillik bor, ruhiy olamida muayyan bir mantiqiylik bor . Shafqat devona asar davomida bir

epizodda ishtirok etsa-da, yodda saqlanib qoladi . U kun bo‘yi ishlab topgan choy-chaqasiga daryo bo‘yidan baliq sotib olib ,ularni qayta suvga qo‘yib yuboradi .Shu rahmdilligi uning boshiga yetadi .Baliqchilar uni suvga cho‘ktirib yuborishadi .Rahmdillikning ko‘pincha kulfat keltirishi Shafqat devona taqdiri misolida ko‘rsatilar ekan , shu orqali Xalil Sulton qismatiga ishora qilinadi .

Shafqat devona Xalil Sulton fe‘l-atvorini to‘ldiruvchi epizodik obraz sifatida ishtirok etadi .U o‘zining rahmdilligi bilan ma’lum darajada Xalil Sulton obraziga yaqinlashadi . “Xalil Sulton” asariga tarixiylik nuqtai nazaridan

yondoshilganda , shoirning tarixiy voqea-hodisalarni chuqur o‘rganib , katta tajriba bilan mavzuga qo‘l urganligiga qanoat hosil qilish mumkin. Usmon Azim talqinidagi Xalil Sulton Alisher Navoiy ,Z.M.Bobur, Davlatshoh Samarqandiy ,V.V.Bartoldlar talqinidagi Xalil Sultonga bir jihatdan yaqin tursa, ikkinchidan, o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi .U.Azim talqinidagi Xalil Sulton murakkab ruhiy holatlarda, hayotiy-maishiy lavhalarda o‘zining xarakter qirralarini namoyon etadi. Shoir uning xarakterini yaratishda realistik va romantik tasvir usullaridan birday foydalanadi .Xalil Sultonning shahzoda va shoir sifatidagi holatlari, xususiyatlari realistik tasvir usullarini taqozo etsa, uning shoirliги va oshiqliги romantik tasvir usulini talab qilgan . Xalil

Sultonning shaxs sifatidagi dilbar fazilatları ko‘p ijodkorlarning diqqatini o‘ziga qaratib kelganligi tabiiy.U.Azim bu xususda shunday deydi : Ulug‘bek Durbek taxallusida “Yusuf va Zulayho” dostonini yozgan, bu ishda unga amakivachchasi Xalil Sultonning Shodimulkka bo‘lgan fojiali muhabbati ilhom baxsh etgan ,degan gaplar ham yuradi .Bizningcha, M.Shayxzoda “Mirzo Ulug‘bek”dagi muhabbat sahnalarini Xalil Sulton hayotidan ulug‘ munajjimga ulashgan ko‘rinadi. Bu fikrni biz U.Azim Xalil Sulton obrazini yaratishda tarixiy faktlar bilan bir qatorda tasavvur va farazlarga ham erk berganligini ta’kidlash uchun keltirdik .Ko‘pgina tarixiy manbalarda Xalil Sulton fojiasi o‘zaro feodal urushlar natijasida yuz berganligi ta’kidlanadi .U.Azim bu fikrlarni rad etmagan holda Xalil Sultonning fojiasini uning o‘zidan izlaydi ,ruhiyatidan, tabiatidan, xarakter mantig‘idan qidiradi .

Xalil Sulton

Amir menga boqib falak toqidan

Yana ta'zim etdi...So'ng ketding ,qoldim

Otimni yetaklab keldim shu kushkka

Va necha yillarkim,ko'zim o'rganib

Qolgan bu suratga nigohim tushdi.

Chaqmoq vujudimni teshganday bo'ldi,

Zirqirab ketdilar suyak -suyagim!

Inson boshi uzra quyunday qilich...

Ul ersa o'limni qilmay tasavvur

“Nahotki” deb boqur engashg'on tiqqa

Bo'g'zimga qalqinib yig'i qadaldi,

Oh urdim ingradim, yugurdim giryon

Anov ot ustida turgan ug'lonning

Shodlikdan nurlangan qiyofasiga

Toshlar otgim keldi...

Asarning asosiy konfliktini quyuqlashtiradigan, bo'rtiradigan qator konflikt halqachalari shiddat bilan rivojlanib bosh qahramonni asosiy konflikt tomon yetaklaydi. Xalil Sulton va Amir Temur, Xalil Sulton va bek amirlar, Xalil Sulton va boshqa shahzodalar munosabatlaridagi murakkablik ham ziddiyatlar asarning bosh konfliktini jonlantirib turadi. Asarning umumiy ruhida goh bilinib, goh bilinmay ohangrabo yanglig' jamiki

unsurlarni o'zida jipslashtirib turgan asosiy konflikt Xalil Sultonning shoirligi va shohligi o'rtasidagi, Xalil Sultonning tabiati va taqdir hukmi o'rtasidagi kelishmovchiliklardir, murosasiz qarama-qarshilikdir.

Tarixiy faktlarning guvoh berishicha, Temurning vafotidan so'ng 1405 yil 18 mart kuni Xalil Sulton Movaraunnahrning oliy hukmdori deb e'lon qilinadi. Bu hukmdorlik atigi to'rt yil, 1409 yilning 13 mayigacha davom etadi.

Bu omadsizlikning, mag'lubiyatning ildizlari Xalil Sulton tabiatidagi ishonch va ezgulik daraxtining tomirlariga tutash. Xalil Sultonning sofdilligi, ishonuvchanligi, kechiruvchanligi, samimiyati uni fojeaga yetaklagan sabablarning sarchashmasidir. Taqdir o'yini Xalil Sultonni saltanat shoh supasiga ko'tarib, undan shafqatsiz, toshyurak bo'lishni talab qildi. Xalil Sulton shoir edi, darvesh qalb edi. Taqdir talabini u bajara olmasdi.

Akademik Bo'riboy Ahmedov "Mirza Ulug'bek" essesinde Xalil Sulton to'g'risida fikr yuritarkan, Davlatshoh Samarqandiyning quyidagi mulohazalariga diqqatni jalb qiladi:

"Sultonzoda Xalilulloh Amir Temur hukmronligi yillarida Eron-u Turon xirojidan jam qilg'on xazinasini ochdi .Nayson bulutidan yoqqan yomg'ir ,balki Badaxshon la'l koni ,Ummon dengizi kabi ko'p zaru javohirni lashkar va raiyatga in'om qildi ..."

⁴Shu faktning o'zi ham uning fuqaroparvar shaxs bo'lganligini kursatib turibdi . Butun asar davomida Xalil Sulton ruhiyatida kechayotgan ziddiyatlar , tuyg'ular taloshi o'zligidan darak berib turadi .Obektiv olam manzaralari ana shu ruhiyat tasviridan anglashiladi .

⁴ Аҳмедов Б . " Мирзо Улуғбек " .Бадиа . "Ёзувчи", 1994 йил . 41-бет .

Xalil Sulton

Amir –sarkardalarning

Ochdan o‘lmoqdami bola –chaqasi ?!

Oyo , zakot to‘lab qiynaldilarmu ?!

Xayru ehson so‘rab biror boyvachcha

Ko‘chada qoldimu sunnat to‘yisiz ?!

Oyo,amirlarning egnidan so‘nggi

Churuk chaponlari tushib qoldimu?!

Qoq –quruq suprag‘a boqmoqdan to‘yib?!

Molu dunyo yana nechun alarg‘a

Kerak bo‘lib qoldi ?

Urg‘ulshoh hukmdor , beklar

Ustundir bepayon davlatingizg‘a

Agar rizo bo‘lma-olloh ham rizo !⁵

Dostonlarda konflikt rivojini xarakterning o‘z mantiqidagi va xarakterlararo ziddiyatlar belgilab turadi .Xalil Sulton ruhiyatida kechayotgan ziddiyatlar uning boshqalar bilan bo‘lgan qarama-qarshiligini bosib tushadi hamda konfliktni jonlantirib turuvchi asos hisoblanadi .Qarama-qarshi qutblar bo‘lgan shoirlik va shohlikni bir shaxs o‘ziga singdirishi qiyin.Mirzo Ulug‘bek , Z.M.Bobur, Sulton Husayn Boyqaro ,Amir Umarxon ,Muhammad Rahimxon I I kabi zotlar hali hukmdor edilar .Lekin ularning hayot yo‘li turli so‘qmoqlardan iborat .Shuning uchun Xalil Sulton obrazini yaratish murakkab psixologik holatlarni ,voqelikdan olinadigan turli xil kechinmalarni berishni taqozo qilardi .Shu bois

⁵ Азимов У.Уйғониш азоби .Шеърлар .”Адабиёт ва санъат “нашри .Тошкент 1983 йил.

U.Azim Xalil Sulton psixikasida ro'y berayotgan o'zgarishlarni qadam-baqadam tadqiq qila boradi, natijada asardagi ichki dramatik uzviylik liro-epik tasvirlarda ro'yobga chiqadi . Mana bir misol:

qofiyaboz

Gapimni eshiting!

Ming bir makkorchilik kitobingizdan

Ming bir usul ila ming bir nayrangni

Oldida ming tusda to'qib tashlangki,

quyoshni sotganin sezmay ham qolsin!

Havfli odam

Buyog'idan zinhor xavotir olmang!

Usmon Azimning "Quyoshli olam" dostonidagi ramziy oborazlar o'sha davr muhitining xarakter ruhiyatini ifoda etgan. "Quyoshli olam" dagi Shayton hamda shaytonsifatlar: Xavfli odam, Xushomadgo'y, Beparvo, Poraxo'r, Mansabparast, qofiyaboz kabilar o'sha tuzum illatlarini urchitayotgan kimsalar tarzida talqin qilingan. Yaratuvchi Inson bilan davr o'rtasidagi ziddiyat asar konfliktini tashkil etgan. Quyosh timsolida ana shunday insonlar va ularning buyuk e'tiqodi ramziy shaklda gavdalantirilganki, kitobxon doston ta'sirida hayotning ma'nosi, ularning o'tkinchiligi to'g'risida o'yg'a toladi. Asardagi Shoir obrazi muallif dunyoqarashi va ruhiy olami mazmunini ifoda etadi. Shu bois, shoir «men»i doston syujetini harakatga keltiruvchi «kuch»ga aylangan. Shoir monologi orqali boshqa ramzlarning ma'nolari ochib berilganligi dostonning janr talablariga mos tushadi. Dostonlarda hayotiy hodisalariing, davr talotimlarining «men» kechinmalari, ruhiyati, nuqtai nazari orqali keng ko'lamli tahlilini berish tendensiyasi istiqlol davri o'zbek dostonchiligida yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Ayrim hollarda ijodkorlar o'z tuyg'ulariii bor ko'lami bilan fikrga «omuxta» etishda qiynalayetganliklari seziladi. Shoir kechinmalari uning ixtiyoridan chiqib «suratlanadi». Bunday kezlarda ruhiyat tasvirini shoir tinish belgilarga «ko'chiradi».

XULOSA:

U.Azim talqinidagi Xalil Sulton murakkab ruhiy holatlarda, hayotiy-maishiy lavhalarda o'zining xarakter qirralarini namoyon etadi. Shoir uning xarakterini yaratishda realistik va romantik tasvir usullaridan birday foydalanadi.

U.Azim Xalil Sulton psixikasida ro'y berayotgan o'zgarishlarni qadam-baqadam tadqiq qila boradi, natijada asardagi ichki dramatik uzviylik liro-epik tasvirlarda ro'yobga chiqadi .

U.Azimning “Qo'yoshli olam” dostonida Quyosh timsolida insonlar va ularning buyuk e'tiqodi ramziy shaklda gavdalantirilgan.

2.2. So‘nggi yillar dostonchiligida lirik qahramon talqini

Ma'lumki, lirik shaxsning ko'ngil kechinmalari, munojoti va murojaati, e'tirofi, qalb manzaralari tasvir lirik she'ring o'zagini tashkil etadi. Biz voqeband she'rlarda ana shu qalb kechinmalarining epik olam manzaralari bilan omuxtalashib ketganligini ko'ramiz. Voqebandlik she'rlar shu sifatlari bilan zamonaviy dostonlarga yaqinlashdi.

Adabiyotshunos N. Rahimjonovning fikricha, o'zbek mumtoz adabiyotidagi muxammas, musaddas va musammanlar lirik dostonlarning sarchasmasidir. Adabiyotshunos M. Ibrohimov esa dostonlar rivojida balladalar muhim o'rin tutishini e'tirof etadi.

Yuqorida fikrlarni rad etmagan holda yana bir narsani alohida ta'kidlash lozimki, XX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan o'zbek dostonlari rivojida voqeband she'rlarning ta'siri sezilarlidir. Chunki biz tadqiqot obektiga asos qilib olgan aksariyat dostonlarning mualliflari "yirik hajmli she'riy asarlar" yaratgunga qadar talaygina voqeband she'rlar ijod etishgan edi. E. Vohidovning "Oqsoqol", "Bizlar ishlayapmiz", "Arslon o'rgatuvchiga", A. Oripovning "Hangoma", "Qasam dara", "Temir odam", "Uchinchi odam", "Sharq falsafasi", A. Mahkamning "Batlon chizig'i", "Hisor begining so'nggi tuni", "Abadiyat sahrosi", U. Azimning "Podshoh g'azablendi", "Armon haqida ballada", "Umida haqida ballada", "Sirk. Ilon o'ynatuvchi ayol" kabi voqeband she'rlari shular jumlasidan.

"Xo'sh, lirikaning epiklashuvi deganda nimalarni tushunish mumkin? Bu xususiyat faqat o'zbek lirikasining so'nggi yillar taraqqiyoti uchungina xosmi? Shunday bo'lsa, uning ushbu davr uchun xarakterli bo'lgan belgilari nimalarda ko'rinadi? Lirikaning epik xarakteri bu moddiy borliq, dunyo va voqelik assotsatsiyalarining lirik "men" orqali ulkan ko'lam kasb etgan holda masshtabi, tajassumi degan so'zdir. Epiklikning o'ziga xosligi ana shunday lirik "men"da ifodalangan estetik umumlashmalarning umuminsoniy mohiyati va xarakteri bilan izohlanadi".

Garchi ushbu ta'rif ixcham hajmli she'riy asarlar to'g'risida bo'lsa hamki, zamonaviy poemalarning xarakterli belgilarini oydinlashtirishda ham qo'l keladi.

Zamonaviy poemalarga yaqin turadigan janrlardan biri voqeaband she'r hisoblanadi. Lirik ifoda usulining epik va dramatik tasvir tarzi bilan uyg'unlik kasb etishini voqeaband she'rlar misolida ham kuzatish mumkin. Aytish joizki, zamonaviy poemalarning bugungidek ko'rinishga erishishida mumtoz dostonlar bilan bir qator voqeaband she'rlar ham muhim o'rin tutadi.

XX asrda yaratilgan voqeaband she'rlar o'zining "o'tmishdoshi" bo'lgan rivoyat, hikoyatlardan quyidagi jihat bilan faqlanadi: voqea-hodisalar hikoya qilinmaydi, balki lirik qahramon shaxsiyatining aralashuvi orqali gavdalanadi. Natijada voqeaband she'rda lirika qahramon shaxsiyatining aralashuvi orqali gavdalanadi. Natijada voqeaband she'rda lirika qurilishiga xos xususiyat kuchayadi.

Mumtoz dostonlar bag'ridagi rivoyat, hikoyatlarni she'riy yo'l bilan yozilganidan qat'iy nazar epik hikoyalar, deb hisoblash mumkin. XX asrning 20-ayniqsa, 30-yillarida yaratilgan voqeaband she'rlar markazida shoir shaxsiyati turadiki, bular lirik hikoyalardir. Chunki bu asarlardagi voqea-hodisalarning ro'yobga chiqishida lirik qahramon kechinmalari asosiy mavqe egallaydi. Turli yillarda yozilgan Cho'lponning "Buzilgan o'lkaga", H. Olimjonning "Nima bizga Amerika?", "Baxtlar vodiysi", G'. G'ulomning "Turksib yo'llari", "Men yahudiyman", "Yalovbardorlikka", "Sen yetim emassan" singari publitsistik she'rlari zamonaviy poemachilik qurilmasiga katta ta'sir o'tkazdi. Garchi yuqorida qayd etilgan she'rlar bugungi adabiy qarashlarda turlicha baholasa-da, biroq yangi davr dostonchiligining yo'nalishlarini belgilab berdi. Ayni she'rlarda "men" ning "biz" nomidan gapirishi udumga kira boshladi va she'riyatda ijtimoiy fikrlash tarzi yetakchilik darajasiga ko'tarildi.

Ayrim voqeaband she'rlar tahlilidan so'ng ularning zamonaviy dostonlar bilan yaqinligi yanada konkretlashadi. G'. G'ulomning "Men yahudiyman" she'ri urush

davrida yozilgan. Gitler Germaniyasining yahudiylarga qarshi yoʻnaltirilgan siyosati va mafkurasi sheʼrning yozilishi uchun asosiy turtki boʻlgan.

Qayerda,

qaydadir

Ayting, firʼavnlr,

Shu tuproq zaminda

Mening Vatanim?

Yoinki,

kamolot-tuhmat boʻlarak

Koʻmilsinmi muallaq

Osmonda tanim?-

-Jim!

Firʼavin jim,

xoqon jim,

Paygʻambarlar,

Sulaymonlar jim!-

Bir xabar keltirmas

Umid hudhudi-

Men yahudiyman...

Tarixiylik va falsafiylik Gʻ. Gʻulom poetik uslubini belgilovchi bosh xususiyatlar. Shoir qaysi mavzuda sheʼr yozmasin-tarixdan, albatta, misol keltiradi va unga falsafiy munosabatda boʻladi. Ushbu sheʼrda ham shoir shu uslubiga sodiq yahudiy xalqi tarixiga nazar soladi, millat taqdirining burilishi nuqtalariga, hal

qiluvchi jarayonlariga e'tibor qaratadi. Lirik qahramonning kechinmalari harakatida, o'sishda, o'zgarish jarayonida aks etadi. Lirik xitoblar va so'roqlar bu jarayonga kuchli emotsionallik bag'ishlaydi. "Men yahudiyman" she'ri voqelikni haqqoniy, tarixan aniq lavhalarda ko'rsatadi hamda obektiv olamni lirik yo'sinda qamrashi, ijtimoiy masalalar, hodisotlar mohiyatini chuqur ochishi, har uchala zamon fe'li nuqtai nazaridan gavdalantirishi bilan ajralib turadiki, bu sifatlar zamonaviy doston poetikasida tobora aniqroq namoyon bo'lib bormoqda.

Sulton Akbariy 1954-yilda "Ijodkorlar" nomli she'rlar to'plamini nashr ettirdi. Bu to'plamdagi ko'pgina she'rlar Sulton Akbariyda voqeabandlik, syujetli she'rlar yozishga moyillik kuchli ekanidan dalolat berardi... Liro-epik tasvirga moyillik Sulton akbariyning tez orada poema janrida kuch sinashga o'tajagini ko'rsatadi. 60-yillarda o'zbek she'riyatining yosh vakillari bo'lgan E. Vohidov, J. Kamol, A. Oripov, M. Ali ijodida syujetli, voqeaband she'rlar ko'plab uchraydi. Ularning bu borada to'plagan tajribalari poema janrida ijod qilishlari uchun qo'l keladi.

Voqeaband she'rida ham, poemada ham epik manzara lirika vositasida namoyon bo'ladi. Faqat voqeaband she'r dostonga nisbatan ixchamroq hayot lavhasini qamrab oladi. Xarakterli birgina hodisa tasviri voqeaband she'r yaratish uchun asos bo'lishi mumkin. Masalan, E. Vohidovning "Oqsoqol" she'rida ham, poemada ham epik manzara lirika vositasida namoyon bo'ladi. Faqat voqeaband she'r dostonga nisbatan ixchamroq hayot lavhasini qamrab oladi. Xarakterli birgina hodisa tasviri voqeaband she'r yaratish uchun bo'lishi mumkin. Masalan, E. Vohidovning "Oqsoqol" she'rida oqsoqolning nonga navbatga turganlarni tartibga solishi voqeasi eslanadi. Shu birgina voqea shoir uchun davr manzarasini chizishga kifoya qiladi. Endi bu she'rning poema darajasiga ko'tarilishi uchun shu bir voqea kamlik qiladi. "Oqsoqol" voqeasiga mazkur mavzuni kengroq ochishga xizmat qiladigan qator masalalar qator voqea-hodisalar tizmasi ulanishi kerak. Va bularning bari oxir-oqibatda davrning muhtasham epik qiyofasini his ettira oladigan quvvatga ega bo'lmog'i lozim.

60-70 yillar poemachiligining taraqqiyoti bevosita publitsistik-falsafiy she'riyat bilan bog'liq bo'lsa, 80-90-yillar poemachiligi lirik she'riyat tomon yuzlandi. Bu lirik she'rlarda ham falsafiy ohang ustuvorligi seziladi. Shu sabab 60-70 yillar poemachiligida liro-epik yo'nalish yetakchilik qilsa, istiqlol arafasi va undan keyingi davr dostonlarida lirik yo'nalish kuchaydi. Qolaversa, 80-yillar oxiri 90-yillar boshida ilk poemalarini e'lon qilgan I. Otamurod, A. Mahkam, Faxriyor, A. Qutbiddin, S. Ashur va boshqalar lirik she'rlar ijodkorlari sifatida tanilgan edilarki, ularning bu boradagi izlanishlari dostonlariga ham ta'sir etmay qolmasdi.

Oy suzib chiqadi osmonga, goyo

Mening hayotimga kirganday bir qiz.

Zim-ziyoda qilcha yog'du tutiyo,

Gunohim tilimga sanchadi bigiz.

Ikkita tizzamni tuproqqa qoqdim,

Dilimni sug'urdim tishlarim bilan.

Ko'nglim yarasini ezib tirnoqda,

Ko'zimni nigohing ila tilaman

Ushbu satrlar S. Ashurning "Tunchiroq" poemadan. Mazkur misralar shoirning har galgi she'rlaridan unchalik farq qilmaydi. Biroq poemada she'rdagidek bir kayfiyat, bir holat tasviri bilan cheklanmaydi, balki kayfiyatlar, holatlar silsilasiga yaratiladi. Va shu kayfiyatlar, holatlar uzviyligi, davomiyligi vositasida epik dunyo manzaralari his etiladi.

So'nggi yillar o'zbek adabiyotida lirik qurilishning ta'siri ortganligini nasriy asarlar misolida ham ko'rish mumkin. O'ylari, xayollari bilan yolg'iz qolib, obektiv olam sadolarini qalban tinglayotgan, ruhiy kechinmalari orqali anglashga intilayotgan shaxs qiyofasi hikoya, qissa, roman singari epik tur janrlarda ham

ko‘plab yaratilmoqda. Bu qahramonlarda lirikada bo‘lgani kabi ichki faollik kuchli.

T. Murodning “Ot kishnagan oqshom”, “Oydinda yurgan odamlar” qissalari, “Otamdan qolgan dalalar” romani, O. Muxtorning “Ko‘zgudagi odam”, “Ffu”, “Ayollar mamlakati va saltanati” romanlari, Nazar Eshonqul hikoyalari ana shunday xususiyatlar kasb etib bormoqda. Epik tur asarlarida ham voqelikning ichki olam manzaralari vositasida ro‘yobga chiqayotganligi ularda lirik tur belgilarining kuchayotganligini isbotlaydi. T. Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanidagi quyidagi parchaga diqqat qaratsak, bu xususiyat aniq ko‘zga tashlanadi.

Havo mo‘tadil-mo‘tadil keldi.

Dalalarim beti tarang-tarang bo‘ldi,

Dalalarim osti bilinar-bilinmas g‘imir-g‘imir etdi.

Dalalarim ostida ko‘r sichqon qirlamishday bo‘ldi.

Dalalarim ostida chuvalchang o‘rmalashiday bo‘ldi.

Dalalarim beti sochday-sochday yorildi.

Dalalarim...bolaladi! To‘qqiz kun-u, to‘qqiz soatda bolaladi.

Pushtalarda tup-tup maysalar nish berdi.

Pushtalarda ko‘m-ko‘k maysalar nish berdi.

Dalalarim bag‘ri to‘ldi. Dalalarim bag‘ri butun bo‘ldi.

Mening bag‘rim dalalarimdan-da butun bo‘ldi

Demak, lirik qurilishga xos belgilar nafaqat poemalarda, epik tur janrlarida ham sezilarli tus olayotgan ekan, bu-davr va zamondoshlar qiyofasini to‘laroq, yorqinroq gavdalantirish yo‘lidagi izlanishlarning samarasidir.

Asqad Muxtor XX asr o'zbek adabiyotida o'ziga xos iz qoldirgan yetuk so'z san'atkorlaridan biri. Uning ijodida poemalar alohida o'rin egallaydi. A. Muxtor poemalaridagi liro-epik tasvirga moyillik uning ham yozuvchi, ham shoir sifatidagi iqtidoridan tug'ilgan tabiiy hodisa. Bu ajoyib hodisa uning 1990 yilda chop etilgan "Dol qoya" poemasini uchun ham xos. "Dol qoya" da qadim Sharq afsonalarida biri hikoya qilinadi. Shoir hikoyani tugundan boshlaydi, tugun ma'lum yakunga yetmay, voqea rivoji kuzatilmay, lirik chekinishga o'tadi. "-Yana o'tmi? -deydi g'ashlanib // Shu kun tashvishi-la yashovchi o'rtoq". Shoir o'n misradan iborat chekinishda kitobxonga murojaat qilib, toqatli bo'lishni so'raydi va yana asosiy voqea bayoniga o'tadi. Muallif voqeani rivojlantirib, ma'lum nuqtaga yetgach, yana kitobxon bilan muloqotga kirishdi.

-Afsonami, yana afsona?-

Deydi ishchan omilkor do'stim.

-Ha-da. Afsonaning mag'zi durdona.

Archib ko'ring tumanli po'stin

Afsonada hikoya qilinishicha, chag'al urug'ida keksarib qolgan ota-bobolarni dol qoyaga qoldirib kelish odati bo'lgan. Shoir bu afsonani bekorga eslamaydi. Sobiq tuzumning so'nggi yillarida amalga oshirilgan "oshkoralik" jarayoni natijasida "oq" "qora" bilan "ijobiy" "salbiy" bilan o'rin almashdi. Bu jarayon aslida mavjud davlatchilikni saqlab qolishga qaratilgan tadbir edi. "Oshkoralik" avlodlararo uzviylikka ham rahna sola boshladi, jamiyatning umumiy kayfiyatiga ham salbiy ta'sir o'tkaza boshladi. A. Muxtor ana shu voqelik ta'sirida afsonaga murojaat qiladi. Shoirning lirik kechinmalari afsona jo'rligida zamondoshlari psixologiyasini ochishga qaratiladi, natijada afsonaning ichki mohiyatidan teran, salmoqdor poetik mazmun chiqariladi. E. Vohidov ijodida alohida o'rin egallagan dostonlar liro-epik xarakteri bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Xususan, "Ruhlar isyoni" da hayot voqea-hodisalari lirik "men" ning faol ishtirokida o'z in'ikosini topadi. Shu tariqa liro-epik tasvir omuxtaligi vujudga kelib, o'zga bir tasvir

xususiyatlari, ya'ni dramatik jins alomatlari namoyon bo'la boshlaydi. Muallif Nazrul Islom hayotiga oid eng qaltis, eng ziddiyatli vaziyatlarni hamda shu vaziyatlarga hamohang eng dramatik, tragik rivoyatlarni tanlab olganligi bois dramatik tur asoslari yorqinroq ochiladi, shoirning g'oyaviy badiiy niyatini yoritishda munosib xizmat qiladi.

“Ruhlar isyoni” da epik tasvir bilan lirik ifoda tez-tez o'rin almashtirib turadi, bir-birini to'ldiradi, boyitadi. Shu tariqa “hayotning eng oliy holatlari” ni qamrab olishga erishiladi. Asardagi fasslar, rivoyatlar asosida voqelik “men” ning qalb tug'yonlari orqali shaklga kiradi, mohiyat kasb etadi. Dostondagi epiklik tuyg'ularga to'yingan, kechinmalardan oziqlangan, liro-dramatizmga yo'g'rilgan epiklikdir.

...Ulg'aydi u,

O'smir bo'ldi,

Yetdi yigit yoshiga.

Ishq otli qush

Kelib qo'ndi

Nazrulning ham boshiga.

U ham yondi bag'ri kabob,

Ham ochildi

chun bahor.

Hijron berdi

totli azob,

visol etdi baxtiyor...

“Ruhlar isyoni” da lirik va epik tasvir bir-biriga shu darajada payvand bo‘lib ketadiki, ular orasidagi tub farqlar barham topgandek tuyuladi. Natijada liro-epik bir butunlik, yagonalik yuzaga keladi.

Omon Matjon poemalarida lirizm va epizm mutanosibli E. Vohidov dostonlarida ancha farq qiladi. Bu farq epik hodisalarga lirik nazar bilan qarashda namoyon bo‘ladi. Uning “Gaplashadigan vaqtlar”, “Cho‘ldagilar”, “Nega men?” poemalarida shu holatni kuzatish mumkin. Bu, albatta, shoirning individual uslubidan, shaxsiyatidan, olamni idrok etish tarzidan kelib chiquvchi qonuniy poetik hodisadir. O. Matjonning aksariyat she‘rlarida ham shu poetik uslubni ilg‘ash qiyin emas. Epik voqealarga lirik nigoh bilan qarash muallif nutqini jonli so‘zlashuv tiliga yaqinlashtiradi. Omon Matjonning “Nega men?” poemasi shu jihatidan xarakterlidir.

...Bosh imom alhol bir kalom aytmayoq
Qolganlar qo‘l tiklab, takrorlab yakdil,
Chapak chalardilar, “xo‘p-xo‘p” derdilar,
Chehra ham, yuz-ko‘z ham, tillar ham bir xil...

“Ha-ha” muridlari, “xo‘p-xo‘p!” qullari
Samolyotga chiqib hammadan burun,
Yetib kelasolib poytaxtlariga
Majlis boshlardilar shu kun kechqurun

Poemaning ayrim o‘rinlarida epik tasvirning maqomi oshgandek taassurot qoldiradi, biroq shoirning ana shu epik lavhalarga bo‘lgan emotsional munosabati liro-epik eshlikni vujudga keltiradi. Asar boblari hayotning alohida-alohida

manzaralar tasviridan tarkib topgan. Lirik “men” ning voqelikka faol aralashuvi alohida-alohida lavhalarga yaxlitlik bag‘ishlaydi.

Poema hayotning xilma-xil muammolari, uzoq va yaqin kechmishning achchiq saboqlari, inson tabiatining tushunish va tushuntirish qiyin burchi kabi masalalarda bahs yuritadi, hayotga, xalq taqdiriga ochiq ko‘z bilan qarashga undaydi, mudroq tuyg‘ularni bedorlikka chorlaydi.

Omon Matjon poemalaridagi epik tasvir lirik tuyg‘ular va kechinmalar ko‘lamdorligini tayin etsa, lirik ifoda epik xarakterdagi lavhalar teranligini asoslab keladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, dostonlardagi epik unsurlar bilan nazariy asarlardagi epiklik aynan bir narsa emas. “Poemadagi epik tasvirni povest yoki hikoyadagi epik tasvir bilan tenglashtirish poemani barbod etish demakdir,-deb yozadi U. Normatov. - ... Poemadagi epik tasvir kam deganda ikki holda, birinchidan, u chinakam qo‘shiqqa aylanib ketsa, chuqur lirizm bilan yo‘g‘rilgan, prozaizmdan tamoman xoli bo‘lsa, ikkinchidan, qahramon xarakterining muhim tomonlarini, yangi qirralarini ochishga yordam bersa, qahramon hayoti va faoliyatidagi oliy momentlar tahlilidan iborat bo‘lsa, qahramon psixologizm, qalb dramasi bilan uzviy bog‘lansa-faqat shundagina o‘zini oqlay oladi”.

Yetmish to‘qqizinchi yil.

Buxoro yo‘li.

Gazeta varaqlab bo‘lib nogahon

Yevtushenko boqdi haydoviga...”Ayt,

“Kichik yer”, “Tiklanish”, hokazo ayron,

Bo‘tqa bitiklarni o‘n yildan keyin

Biron odam olib ko‘radimi? Yo‘q”

Shofyor yelka qisdi. U “Inturistdan”.

Shoirlarga indamay boqdi ko‘zi lo‘q.

Lirik asarlardagi bandlarda muayyan bir fikr ifoda etilib, unga nuqta qo‘yiladi. Fikr band doirasida nihoyasiga yetadi. Biroq “Nega men?” dostonidan keltirilgan she‘riy parchada esa unday emas. Chunki unda epik tasvir usuli lirik ifodadan ustunlik qilmoqda.

O. Matjon poemalari, xususan, “Nega men?” asari uchun xos bo‘lgan xususiyatlardan biri shundaki, unda lirik ifoda epik tasvir bag‘ridan o‘sib chiqadi. Epik lavhalar, epik manzaralar lirik ifodaning parvozi uchun zamin hozirlaydi. Muayyan turga mansub asarda o‘zga tur xususiyatlarini uchrashi tabiiy hol. Zero, hech bir tur xususiyati sof holda uchramaydi. Ammo biror bir janrda sintezlashuv hodisasi dostonlardagichilik mustahkam va barqaror asosga ega emas. Shu bois ayrim adabiyotshunoslar poemani yangi bir turning, ya’ni liro-epik turning janri deb atashni taklif qilishgan. Poema lirik, liro-epik, dramatik bo‘lishi mumkin, ammo bu ko‘rinishlarning barchasi zamirida epiklik mavjud. Lirik poema to‘g‘ri ma’noda tushuniladigan bo‘lsa, hech qachon lirik doston bo‘lolmaydi. Faqatgina lirik kechinmalar bilan doston yaratilmaydi. Chunki birgina lirik kechinma tabiati dostoniy ko‘lamdorlikni aks ettirishga qodir emas. Shuni alohida ta’kidlash kerakki. Lirik dostonda lirik tur xususiyatlari yetakchilik qiladi, bu –lirik poemada epik va dramatik tur xususiyati bo‘lmaydi degani emas, albatta. Poemaning mazkur ko‘rinishida epik va dramatik xususiyatlar lirik tasvirga ergashadi. Bu xuddi gapning bosh bo‘laklari ikkinchi darajali bo‘laklarni o‘ziga tobe qilganidek, ergashtirganidek bir gap. Demak, poemaning muayyan bir ko‘rinishga egaligi asarning ustivor xususiyatlariga qarab belgilanadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ma’lum poemadagi liro-epiklikning mustahkamligi unda dramatik belgilarning yo‘qligini anglatmaydi.

Asqar Mahkam poemalarida liro-epik uyg‘unlikning o‘ziga xos tarzi namoyon bo‘ladi. Agar O. Matjon poemalarida epik tasvir lirik ifoda uchun zamin hozirlasa,

A. Mahkam poemalarida epik ifoda lirik tasvirga ergashadi. Shoirning “Ishq”, “Tavajjuh”, “To‘rt darvish” dostonlarida lirik ifoda epik tasvirlar vobastaligida o‘zi uchun keng maydon hosil qiladi. Qalb kechinmalari va tug‘yonlari janr talablariga muvofiqlashish uchun epik unsurlarni talab qiladi.

A. Mahkam poemalarida lirik ifoda tadrijiy rivojlanish jarayonida eng xarakterli, eng zarur epik chizgilarni qamrab ola boshlaydi. Muayyan so‘zlarning, misralarning qayta-qayta takrorlanishi natijasida hosil bo‘ladigan musiqiylik tufayli lirik asos kuchayadi va shu asnoda epik tasvirni ham liriklashtiradi. “Ishq” poemasidan keltirilgan quyidagi she‘riy parchaga diqqat qilsa, liro-epik uyg‘unlikning A. Mahkam poemalariga xos ko‘rinishi bir qadar ayonlashadi.

Osmon-yerga yog‘ayotgan moviy yomg‘ir

Bu yomg‘irning zarralari nur nurlari

Bu yomg‘irning tomchilari yosh yoshlari

Osmon yoqqan sahrolarda yobonlarda

Karvon ro‘zg‘or to‘zonini yutib ko‘char

Karvon ro‘zg‘or tupugini yutib ko‘char

Osmon yoqqan dalalarda o‘ngirlarda

Karvon borar, o‘z go‘shtini kavshab borar

Karvon borar, o‘z qonini ichib borar

Karvon borar, o‘z tanasini ichib borar

Karvon borar

Karvon borar

Karvon borar

Karvon borar...

Shoir epik tasvirga lirik salmoq yuklab, ulardan qaytariqlarda, takrorlarda ham foydalanaveradi. Oqibatda epik bo‘laklar ham musiqiylik va ohangdorlik kasb etib liriklashadi. A.Mahkamning “Ishq” dostonida komil inson falsafasi shoir “men”i orqali ro‘yobga chiqadi. “Ishq” - arabcha so‘z bo‘lib, uning lug‘aviy ma‘nosi zarpechak demakdir. Zarpechak nimjon, chuqur ildiz otmagan o‘simliklarni quritganidek ishq ham nochor va zaiflarni abgor qilishi mumkin. Ishq aslida o‘z mohiyati bilan insonni ruhiyatning musaffo osmonlariga, komillik sarhadlariga yetaklaydi. “Ishq” dostonilagi lirik qahramonning, ya‘ni komil insonning Ilohga bo‘lgan ishq, uning Vatanga, elga, yorga, insonga bo‘lgan ishq bilan birlashib ketadi. Natijada ishq zamiridagi ma‘no va tushunchalar ufqi kengayadi. .

Komillikka yo‘l haqiqiy ishqdan boshlanadi. Ishqsiz odam komillikning ko‘chasiga ham yo‘lamaydi.. Jaholat va gumrohlik, riyokorlik va fosiqlik qusurlaridan tozarishga, ruhni poklashga da‘vat A.Mahkam dostonlarining yo‘rig‘ini belgilaydi.

Jamiyatimiz hayotida kechayotgan ma‘naviy takomillashuv jarayoni bugungi dostonlarning tasvir markazida turibdi. Komillik falsafasi mumtoz dostonchilikda voqea-hodisalar oqimida aksini topgan bo‘lsa, zamonaviy dostonchilikda bu hol shoir shaxsining boy intellektual olami, uning ruhiyati iqlimlari tasvirini berishi orqali ro‘yobga chiqayotir.

Faxriyorning “Yoziq”, “Ayolg‘u” dostonlarini ana shunday asarlar sirasiga kiritish mumkin. “Ayolg‘u” asarini shoirning o‘zi “besh juft taxayyul sabog‘i... va to‘rt tanafusdan iborat doston” deb ataydi. Shundan ham ko‘rinib turibdiki, shoir voqea-hodisalar ta‘sirida ongda muhrlangan, ko‘ngilda kechilgan, xayolotda jonlangan manzaralarga e‘tibor qaratmoqchi. Xayolot olami esa cheksiz va chegarasizdir, tugal va notugaldir.

taxayyul sabog‘i oydayin za‘far

dilimning hijrati qayg‘uga safar

alam bor gunoh yo`q na hojat g`affor
yo`q gunohga buncha mahfirat
qaro tun qatida ummidim falaj
o`ylarim o`yilar ko`zday na iloj
men na osiydirman, na mansur xalloj
o`zim qolib senga sig`indim.

Komillikka yo`l- shodu xurramlikka, dili xandonlikka yo`l emas. Bu yo`l Faxriyor ta`biri bilan aytganda, “qayg`uga safar”, mashaqqatlarga , iztiroblarga safar. Ahmad Yassaviy, Rabg`uziy, A.Navoiy kabi mutafakkirlar ijodida ham komillik shunday talqin etiladi. Faxriyorning dostonida ayolg`u chalib, turkular kuylayotgan baxshi siymosini ko`ramiz Bu baxshining sharqona dunyoqarashi modeonistik ohanglar bilan uyg`unlashib ketadi.

Bugungi doston komillik masalasini falsafiy talqin etayotgan ekan, Imom al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Jaloliddin Rumiy, Boyazid Bistomiy, Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy singari komillik martabasidagi shaxslar uning syujetidan qonuniy ravishda joy olmoqda. Ijodkor esa o`zining ahloqiy, ma`rifiy qarashlarini shu obrazlarning shaxsiy sifat va fazilatlariga tayanib ro`yobga chiqarmoqda.

Bugungi davr voqealari mohiyatiga tasavvuf nigohi bilan qarshi shoir uchun ifoda tarzining yangi imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

An`anaviy janrning yangicha ko`rinishlari vositasida ma`naviy masalalarning talqin etilishi, ruhiy bedorlikka da`vat ohangining ustivorligi, shular asosida umuminsoniy miqyoslarda mushohada yuritish tamoyillarining o`ziga xoslik kasb etishi Asqar Mahka dostonlarining mundarijasini belgilaydi.

Hujjat epiklikni kuchaytirish vositasi hisoblanadi. Bugungi poemalarlarda lirizm ustunligi yaqqol sezilsa-da, lekin bu lirizm epiklikka to`yingan, epizm bilan

omuxtalashgan lirizmdir. Shu ma'noda poemalarda hujjatlilik ham muhim rol o'ynamoqda. Gezata xabarlar, kitoblardan ko'chirma keltirish, tarixiy faktlar, xat, kundalikdagi qaydlar, statistik ma'lumotlar dostonlar qurilishiga singib borayotgan ana shunday hujjatlilikni tashkil etadi. O. Matjon "Ming bir yog'du" poemasida Navoiy asarlaridan, T. Ahmad "Moziy sabog'i" asarida arxiv ma'lumotlaridan, Q. Rahimboyeva "Qishning oxirlari" asarida I. Otamurod "Sen" asarida xat janridan, Faxriyor "Ayolg'u" poemasida tarixiy faktlardan, T. Nizom "Girya" poemasida mumtoz shoirlar g'azallaridan samarali foydalanarlilari hujjatlilikning bugungi poemadagi o'rnini ko'rsatib turibdi. Poemalarimizda hujjatlilikning qaror topib borayotganligini ikki omil bilan izohlash joiz. Dostonnavislarimiz, birinchidan, zamonaviy proza yutuqlaridan foydalanayotgan bo'lsalar, ikkinchidan, A. Voznesenskiy, YE. Yevtushenko, M. Marsinkyavichyus, R. Hamzatov kabi iste'dod egalarining tajribalaridan bahramand bo'lmoqdalar.

Zamonaviy o'zbek poemachiligining qator namunalarida, jumladan, E. Shukurning "Ibtido xatosi", I. Otamurodning "Sen", A. Mahkamning "To'rt darvish", "Fotiha" asarlarida xalq dostonlaridan farqli ravishda zamonaviy dostonlardagi nasriy bo'laklar nazmga yo'g'rilgan. Bu asarlardagi nasriy parchalar ifoda tarzi bilan nasrdagi nazmlarni yodga soladi. "To'rt darvish" dostoni muqaddimasidan olingan quyidagi parcha, uning isbotidir:

"Darvishlar...samun ko'zlari chokini qavib, garmsellr xoki tanini qum to'fonlariga ko'mgan sahrolarda ularning hasratli zikrlari girdubod qa'riga singdi. Fotihalar qonli jom sipqorganda murda xalqlar va buzg'un mazgil-maoblar ustida tantana qilganda, singan qilichlar damidan odamzod qoni qumursqalar tili bilan artilganda; yovqur ayg'irlarning yorib tashlangan sag'rilari karkas va o'laksaxo'rlarga yem bo'lganida; charxi dun va ahli bashar zulmu sitez ichinda bo'g'ilganicha yer tirnab, yohu chekib, faryod solib zikr tushgan darvishlar edi...".

Ko'rinib turibdiki, dostonlarning nafaqat she'riy yo'l bilan, balki nasriy yo'lda bitilgan o'rinlarida ham liro-epik uyg'unlik o'zligidan darak bermoqda. Liro-epik, dramatik, lirik dostonlarda ham bu uyg'unlik o'zligidan darak bermoqda. Liro-

epik, dramatik, lirik dostonlarda ham bu uygʻunlik lirik asosni mustahkamlashga, uning qamrov doirasini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Toʻlan Nizom poemachilik borasida katta tajribaga ega. Uning “Choʻlponoy”, “Girya” asarlari istiqlol davri oʻzbek dostonchiligida oʻziga xos mavqega ega. Zamonaviy dostonchilikning muhim fazilatlaridan biri ularda epiklik unsurlariga kechinmalar eshligining joʻr etilayotganligidir. Toʻlan Nizomning “Uch soʻz” poemasi 1995- yilda yozilgan boʻlib, Zahridin Boburning hayoti va faoliyatiga bagʻishlangan. “Uch soʻz” ning kompozitsion qurilishi ancha murakkab. Unda dramatik dostonlarga xos dialogni ham, lirik dostonlarga xos kechinmalar ifodasini ham, epik dostonlarga xos voqeabandlikni ham uchratish mumkin. Lekin dialoglarda dramatik dostonlarga xos keskinlik va taranglik yetishmaydi, muallif oʻzining shoirlik iqtidorini harchand ishga solmasin, lirik manzaralarda tabiiylik va joʻshqinlik sezilmaydi, asarning umummatniga singib ketmaydi. Bularning bari liro-epik tasvir oʻrnini voqeanavislik, tarixnavislik egallaganligi uchun yuzaga keladi. Poemaning jiddiy kamchiligi shundaki, unda epik asarlarga xos boʻlgan prozaizm oʻzga tasvir usullarini bosib tushadi. Asar uchun tanlab olingan voqelik qahramonlar xatti-harakati orqali emas, muallif nutqi orqali reallashadi.

Soʻngi davr oʻzbek dostonlariga eʼtibor qaratilsa, Sirojiddin Sayid, Ikrom Otamurod, Usmon Azim kabi ijodkorlar ruhi, xalq ruhiyatidagi yanglishlar nafasi oʻz ifodasini topganligiga amin boʻlamiz. Oʻzbek dostonchiligida ramziy borazlar va xarakterlarga eʼtibor kuchayganligini oʻtgan asrning 80- yillarida yaratilgan dostonlarga Shayton, Arvoh ramzlarining rang-barang talqinlari orqali kuzatamiz hamda mazkur obrazlar vositasida davr voqea-hodisalarini ifodalash tendensiyasi qaror topganligining guvohi boʻlamiz. Abdulla Oripovning “Jannatga yoʻl” dramatik dostoni, Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostoni. Istiqlol davrida yaratilgan Husniddin Sharipovning «Qaynarbuloq», Oydin Hojiyevaning «Ziyorat», Mahmud Toirovning «Ogoh boʻl, dunyo!» dostonlarida butungi hayotimizga shukronalik, Vatanga mehr — muhabbat tuygʻulari badiiy ifodasini topgan. Xulosa qilib aytish mumkinki, soʻnggi yillar oʻzbek dostonlarida

zamondoshimiz timsoli bor bo'y —basti, tuyg'ular rang — barangligi ila gavdalandirildi; «men»ning bepoyon xayoloti, ruhiyati tafakkur kengliklarini qamrab olib, qalb sezimlariga vobasta yangi ma'nolarni ifoda etmoqda, natijada poetik tafakkur miqyoslari kengayib, salmoqli badiiy umumlashmalar kashf qilinmoqda.

Xulosa qilib aytganda:

- Hozirgi o'zbek poemalariga xos bo'lgan xususiyatlardan biri ularda lirik ifodaning epik tasvir tarzi bilan uyg'unlashib ketishida ko'rinadi.
- So'nggi yillar poemalarida lirik ifoda epik tasvir bilan tez-tez o'rin almashtirib turadi va bir-birini to'ldiradi;
- Poemalarda lirizm va epizm mutanosibligi mualliflarning individual uslubi bilan ham bog'liqdir;
- Hozirgi poemalarda hujjatlik unsurlari ham ulardagi epiklikni kuchaytiradi.

UMUMIY XULOSA

Zamonovaiy o'zbek adabiyotini kuzatib, unda yuksak sifat o'zgarishlari amalga oshayotganligining guvohi bo'lish mumkin. Izlanishlar o'z samarasini bermoqda. Milliy adabiyot tafakkur tarzini jahon adabiyoti uzoq asrlar davomida to'plagan an'ana va tajribalarga omuxta etilayotganligi o'zbek adabiyotining yaqin istiqbolidan darak bermoqda. Dostonlarning mazmun mohiyatini, tafakkur doirasining kengayganligiga, fikrlash tarzini o'sganligiga, insonni azal va abad ruhi adabiyotning yana chinakam tadqiqiga tortayotganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Umuminsoniy qadriyatlar va muammolarning kun tartibiga qo'yilayotganligi, hayotning turfa ranglari, turli zamonlarning xulosa va saboqlari bugungi tarixiy voqeligimizni ochib berishga yo'naltirilayotganligi fikrimizni yorqin dalilidir. Bugungi dostonning lirik qahramoni insoniyat tarixining markazida turgandek taassurot qoldiradi, har bir hodisa uning ishtirokida ro'y beradi, uning sezimlari tizimi barcha hodisalarni taftish qiladi, chamalaydi.

Bitiruv malakaviy ishimiz manbai sifatida tanlangan lirik doston xususiyati va bosh obraz masalasi (I.Otamurod va U.Azim dostonlari misolida) deb nomlangan ishimizning tadqiqi quyidagi xulosalarga olib keldi:

- 1.Ijodi istiqlol arafasida shakllanib, kamolga yetgan ijodkorlar dostonlarida ham lirika qurilishiga xos belgilarning ustivorligini aniq ko'rishimiz mumkin.
2. Dostonning turli lirik janrlar (g'azal, muxammas, masnaviy, ruboiy, tuyuq, fard, qasida va h.kz) bilan ziynatlash, bir mavzu doirasidan har xil lirik lavhalar yaratish an'analariining ko'chayib borayotganligi zamonaviy dostonlarda lirik qurilishining mavqeini oshirmoqda.

3. Ikrom Otamurod «**Yarador umid otlari**». «**Yobondagi yolg'iz daraxt**», «**Sopol siniqlari**», «**Ichkari... tashqari...**», «**Aning umidi**» dostonlarida tuyg'ularning, fikrning so'zlar ishtirokisiz, faqat nuqtalar bilan bog'langan o'rinlari ham bor. Bu jihatlar muallifning chuqur ruhiy iztiroblarini ifoda eta olganligidadir.

4. “Xaritaga tushmagan joy” dostondagi shoir obrazi va uning monologlari vositasida «dunyo aks etgan xarita», «kangul», «o'z ko'ngliga begona kas», «nafs», «ig'vogar, xasadgo'y, yolg'onchi odam», «davrada gap bermaydigan odam», «safarga hirs qo'ygan sayyoh» kabi obraz — ramzlarning ma'nosi ochib berilgan va lirik dostonda bosh obraz ya'ni shoirning o'zi “men”i kangul tasvirida yoritilgan.

4. “Tag'azzul” dostonida Sharq g'azaliyotida hijrondan zada bo'lgan qalb manzaralari yuksak badiiy shaklda o'z ifodasini topgan. Shu an'analarning davomi o'laroq I. Otamurod ham poemaga g'azal ruhini olib kirgan va betakror ramziy timsoliy ifoda ishlata bilgan..

5. Hozirgi o'zbek poemalariga xos bo'lgan xususiyatlardan biri ularda lirik ifodaning epik tasvir tarzi bilan uyg'unlashib ketishida ko'rinadi. U. Azim talqinidagi Xalil Sulton murakkab ruhiy holatlarda, hayotiy-maishiy lavhalarda o'zining xarakter qirralarini namoyon etadi.

6. U. Azim Xalil Sulton psixikasida ro'y berayotgan o'zgarishlarni qadambaqadam tadqiq qila boradi, natijada asardagi ichki dramatik uzviylik liro-epik tasvirlarda ro'yobga chiqadi .

7. Bugungi doston qurilishi XX asrgacha yaratilgan dostonlar qurilishidan keskin farq qiladi. Janr shakli shamoyilidagi o'zgarishlar hanuz davom etmoqda. Bugungi o'zbek dostoni sharqu g'arb adabiyotining turli xil oqimlaridan oziqlanib turgan bo'lsa-da, ammo u o'zining milliy sarchashmalari an'analari sodiq qoldi va unga yangi ohanglar baxsh etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1''. Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar''. - T.6 O'zbekiston 2000.-B.56
- 2.''Adabiy turlar va janrlar''. III tomlik.1-t.-:Fan.1991yil.
- 3.''Adabiyot nazariyasi''. II tomlik.
- 4.Boboyev. T. ''Adabiyotshunoslikka kirish''.T.: 2005 yil.
- 5.Meli.S.'' Lirizm va tragizm'' O'TA.1999 №2
- 6.Mirzayev .S. ''Hayot va adabiyot''. Ilmiy asarlar.-T.: Sharq nashriyoti-matbaa konserni 2001.
- 7.Nazarov.B.''Hayotiylik –bezavol mezon''. T.: Yosh gvardiya, 1985 yil.
- 8.Normatov.U., Hamdam.U. ''Dunyoning yangicha ko'rish ehtiyoji'' JA 2002 yil.
- 9.To'lakov.I.''Nurli manzillar'', Adabiy-tanqidiy maqolalar.-T. O'zbekiston, 1992 yil.
- 10.Shukurov.N. ''Bu olam sahnida''.-T.:1992 yil.
- 11.Eshbek.Y. ''Sen'' dostoni xususida'' Yoshlik.-1996,№6
- 12.Hasanov.SH. ''Ikki qissa-bir hissa'' Sharq yulduzi,1991, №9
- 13.Hasanov.SH. O'zbek dramatik dostoni.-Samarqand: 1997 .
- 14.Haqqul.I.''Irfon va idrok''.-T: Ma'naviyat, 1998.
15. Jamol Kamol. ''Lirik she'riyat''. -T.: Fan. 1986.
16. Мухаммад Ғаззолий. "Дунё ҳаёти". "Шарқ юлдузи", 1999 йил, 9— 10-сонлар.
17. Ҳасанов Ш. Достонларда шоир шахсияти талқини, "Ўзбек тили ва адабиёти", 2001 йил, 3-сон.

BADIIY ADABIYOTLAR

- 18.Azimov.U. “Ko‘zgu”. She‘rlar va dramatik doston.-T.: Adabiyot va an‘at nashriyoti, 1983 yil.
- 19.Azimov.U. “Uyg‘onish azobi”. She‘rlar, dramatik qissa.-T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1991 yil.
- 20.Afoqova.N. “Bahorning boshlanishi”. She‘rlar va doston.-Buxoro, 1997 yil.
- 21.Ashur.S. “Siz ertaga kelasiz”. She‘rlar va dostonlar.-T.: Yozuvchi nashriyoti 2000 yil.
- 22.Ahmad.T. “Moziy saboqlari”. Doston\\Yozuvchi,2001
23. Boyqobilov.B.” O‘zbeknoma”.-T.: 1999 yil.
- 24.Davron.X. “Uchib boraman qushlar bilan”. She‘rlar, dramatik doston.-T.:1983.
- 25.Zulfiya. “Xotiram siniqlari” Saodat.№5 1995 yil
- 26.Matjon.O. “Iymon yog‘dusi”. She‘rlar, dostonlar.-T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1994 yil.
- 27.Mahkam.A. “Haq”. Saylanma-Dushanbe. Adib. 1998 yil
- 28.Mahkam.A.” Ishq”.-T.: CHo‘lpon, 1993 yil.
- 29.Muxtor. A. “Yillarim”. She‘rlar va doston.-T.: Yozuvchi nashriyoti, 1990 yil.
- 30.Nizom .T. Saylanma She‘rlar, dostonlar, ruboyilar.-T.: “Sharq” 1998yil.
- 31.Otamurod.I. “Sen”. –T.: Qatortol-kamolot, 1990
- 32.Otamurod.I. “Yobondagi yolg‘iz daraxt” Sharq yulduzi:,2000

33. Faxoiyor. “Dardning shakli”. She’rlar va dostonlar.-T.: Sharq,1997 yil.
- 34.Faxriyor. “Ayolg‘u”. She’rlar va dostonlar.-T,: 2000 yil.
- 35.O‘zbek xalq dostoni. “Alpomish”.-T.: Yozuvchi nashriyoti,1999 yil.
- 36.Yusuf.M. Saylanma. She’rlar va dostonlar.-T.: “Sharq”, 2004 yil.
- 37.Shukur.E.” Ibtido xatosi” Sharq yulduzi. 1991 yil.
- 38 Ikrom Otamurod,” Ichkari... tashqari... “Sharq yulduzi, 1997 yil, 5-son.
39. Ikrom Otamurod. “Sopol siniqlari”1994-yil.